

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**SIRDARYO VILOYATINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI**

**2023- YIL
YANVAR-DEKABR**

SO‘Z BOSHI

Sirdaryo viloyatining statistik axborotnomasi viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar holatini kompleks tavsiflovchi Viloyat statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2023- yil yanvar-dekabr oylari yakunlari bo‘yicha Sirdaryo viloyatining asosiy statistik ko‘rsatkichlari chop etilgan.

Ushbu nashrda 2017- yilning I-choragidan boshlab, hisobot davri uchun statistik ko‘rsatkichlar Yevropa hamjamiyatining Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umum davlat tasniflagichi (IFUT-2) bo‘yicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mavjud iqtisodiy faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT-2 talablari qo‘llanilgan. Xususan, foydalani layotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo‘naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash, suv ta’minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B,C,D,E,F seksiyalari). Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini, iqtisodiyot tarmog‘i sifatida talqin qilishdagi tafovutni bartaraf etish maqsadida, yangilangan tasniflagichda qishloq xo‘jaligi faqatgina dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga olmay, balki o‘rmon va baliq xo‘jaliklari mahsulotlarini ham o‘z ichiga oladi (Seksiya A “Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi”).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, Yalpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi iqtisodiy faoliyat turlarining ulush ko‘rsatkichlari yalpi qo‘silgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya’ni, YAHM hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar chiqarib tashlangan).

Nashr 13 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo‘lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek yalpi hududiy mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyati, investitsion faollik, korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, sanoat, qurilish, bozor xizmatlarining rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi statistika ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Statistik axborotnomada sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport, ichki va tashqi savdo, ulgurji va chakana savdo, narx, mehnat bozori va demografik holat to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar keng yoritilgan.

MUNDARIJA

Nomi	bet.
ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLAR	5
I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT	6-16
II. SANOAT	17-37
III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI	38-78
IV. INVESTITSIYA VA QURILISH ISHLARI	79-101
V. XIZMATLAR	102-115
VI. TRANSPORT	116-122
VII. ISTE'MOL BOZORI	123-129
VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT	130-148
IX. KICHIK TADBIRKORLIK	149-162
X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI	163-174
XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI	175-200
XII. DEMOGRAFIK HOLAT	201-213
XIII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI	214-217

Qisqartma va shartli belgilar

YAHM	yalpi hududiy mahsulot	0,0	katta bo‘lмаган miqdor
%.	foiz	m.	marta
mlrd.	milliard	-	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln.	million	ga	hektar
mln. AQSH doll.	million AQSH dollarlari	t	tonna
ming.	ming	dona	dona
kv.	kvadrat	yo‘lovchi/km	yo‘lovchi-kilometr
km	kilometr	Mbit/s	Megabit /soniya
m	metr	1), 2), 3).....	izohning mavjudligi

Asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar
(2023- yil yanvar-dekabr)

	<i>Mldr. so‘m</i>	<i>2022- yil yanvar-dekabriga nisbatan % hisobida</i>
Yalpi hududiy mahsulot	21 549,9	105,9
Sanoat mahsuloti	15 190,7	107,1
Iste’mol tovarlari	3 044,2	109,2
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) lari	14 675,1	106,4
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	15 349,1	113,9
Qurilish ishlari	3 903,8	107,9
Yuk aylanmasi (mln. t/km)	346,4	102,2
Yo‘lovchi aylanmasi (mln. yo‘lovchi/km)	2 704,5	103,1
Chakana savdo tovar aylanmasi	5 252,8	107,0
Xizmatlar, jami	6 099,0	110,9
Tashqi savdo aylanmasi, (mln. AQSH. doll)	849,6	104,4
Eksport	333,2	101,7
Import	516,4	106,3
Saldo (+,-)	183,3	x

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

SIRDARYO VILOYATIDA ISHLAB CHIQARILGAN YALPI HUDUDIY MAHSULOT

**2023- yilda Sirdaryo viloyatida
ishlab chiqarilgan yalpi hududiy
mahsulot**

**YAHM hajmi,
mlrd. so‘m**

21 549,9

**YAHM o‘sish
sur’ati**

105,9 %

**YAHM deflyator
indeksi**

111,8 %

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023- yilda Sirdaryo viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 21 549,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022- yil bilan taqqoslaganda 5,9 % ga o‘sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022- yil narxlariga nisbatan 111,8 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Sirdaryo viloyatining qo‘sghan hissasi 2,0 % ga yetdi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish
hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mlrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da</i>
	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>	
I. YAHM, jami	18 210,8	21 549,9	105,9
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	17 614,9	21 057,5	105,8
mahsulotlarga sof soliqlar	595,9	492,4	107,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	17 614,9	21 057,5	105,8
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	7 129,3	8 246,5	106,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	5 692,9	7 194,7	107,3
sanoat	4 331,3	5 564,9	107,1
qurilish	1 361,6	1 629,8	107,9
xizmatlar	4 792,7	5 616,3	103,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	792,4	945,1	108,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	563,1	674,9	111,3
boshqa xizmat tarmoqlari	3 437,2	3 996,3	101,1

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM

**Aholi jon boshiga hisoblangan
YAHMning o'sish sur'atlari
(o'tgan yilga nisbatan % hisobida)**


2022- yil

103,4

2023- yil

103,8


Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinish turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 23 804,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,8 % ga yuqoridir.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**

	<i>Mlrd. so‘m</i>	
	2022- yil	2023- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	96,7	97,7
mahsulotlarga sof soliqlar	3,3	2,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	40,5	39,2
sanoat (qurilishni qo‘shtigan holda)	32,3	34,1
sanoat	24,6	26,4
qurilish	7,7	7,7
xizmatlar	27,2	26,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	4,5	4,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,2	3,2
boshqa xizmat tarmoqlari	19,5	19,0

Iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




2023-yilda hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,3 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 39,2 % ni, sanoat tarmog'i 26,4 % ni, qurilish 7,7 % ni va xizmatlar sohasi 26,7 % ni tashkil qildi.



2023- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 2,4 f.p. (2022- yilda – 2,0 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,7 f.p. (2022- yilda – 2,1 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2022- yilda – 0,0 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,0 f.p. (2022- yilda – 1,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2022- yilda – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.



YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari (o’tgan yilga nisbatan % da)



2023- yilda YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 106,3 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 39,2 %), sanoatda – 107,1 % (26,4 %), qurilishda – 107,9 % (7,7 %), xizmatlar sohasida – 103,4 % ni (26,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 108,1 % (4,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 111,3 % (3,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,1 % dan (19,0 %) iborat bo‘ldi.



YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)

YAHM



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat




2023- yilda YAHM deflyatori

indeksi 2022- yildagi narxlarga nisbatan 111,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 120,0 % va xizmatlarda – 113,3 % qayd etildi.



Qurilish



Xizmatlar



Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi,
mlrd.so‘m

2022- yil

11 471,4

2023- yil

13 382,8

Ulushi,
% da

65,1

63,6

2023- yilda kichik

tadbirkorlik 13 382,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2022- yilda – 11 471,4 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 63,6 % ni (2022- yilda – 65,1 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.



Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – ma’lum bir davr mobaynida ma’muriy-hududiy tuzilishlarda joylashgan iqtisodiy rezident–birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichidir;

yalpi ishlab chiqarish (YAICH) – hisobot davrida rezident–birliklarning ishlab chiqarish faoliyati natijasini ifodalovchi, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning umumiyligi qiymatidir;

oraliq iste’mol (OI) – muayyan davrda boshqa tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun sarflangan (asosiy kapital iste’moli bundan mustasno) tovarlar va bozor xizmatlari qiymatidir;

yalpi qo’shilgan qiymat (YAQQ) – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar (ishlab chiqarish) qiymati va ishlab chiqarish jarayonida to‘laligicha ishlatilgan tovarlar va xizmatlar (oraliq iste’mol) qiymati o‘rtasidagi farq orqali aniqlanadi;

yollanma ishchilar mehnatiga haq to‘lash – hisobot davrida bajarilgan ish uchun yollanma ishchiga ish beruvchi tomonidan to‘lanadigan pul yoki natura shaklidagi to‘lovlar. Mehnatga haq to‘lash, qonunchilikka muvofiq soliqlar va boshqa to‘lovlarni chegirmagan holda hisoblangan summa asosida hisobga olinadi;

mahsulotlarga soliqlar – rezidentlar tomonidan ishlab chiqarilgan, sotilgan va import qilingan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda tovar yoki xizmatning bir birligiga solinadigan soliqlardir. Ularga qo’shilgan qiymat solig‘i, aksizlar, eksport va importga soliqlar va boshqalar kiradi;

ishlab chiqarishga boshqa soliqlar – korxona va tashkilotlarga ishlab chiqarishdagi ishtiroki natijasida solinadigan barcha soliq turlaridan (mahsulotlarga soliqlar bundan mustasno) iborat. Ular yer va tabiiy resurslar uchun, ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan ishlab chiqarish vositalari yoki ishchi kuchi uchun, shuningdek ma’lum bir faoliyat turlari yoki operatsiyalar bilan shug‘ullanishga ruxsat olish va boshqalar uchun to‘lanishi mumkin;

sof soliqlar – tegishli subsidiyalar chegirib tashlangan soliqlardir;

subsidiyalar – davlat boshqaruvi organlari, shu jumladan norezidentlar tomonidan korxonalarga, ularning ishlab chiqarish faoliyati hajmidan yoki ular tomonidan ishlab chiqarilgan, sotilgan va import qilingan tovarlar va xizmatlarning qiymati yoki miqdoridan kelib chiqqan holda to‘lanadigan beg‘araz to‘lovlardir;

mahsulotlarga subsidiyalar – rezidentlar tomonidan ishlab chiqarilgan, sotilgan va import qilingan tovarlar va xizmatlarning miqdori va qiymatiga mutanosib tarzda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning bir birligi uchun to‘lanadigan subsidiyalardir;

ishlab chiqarishga boshqa subsidiyalar – korxonalar tomonidan ishlab chiqarish faoliyati natijasida olinadigan subsidiyalardir (ishlab chiqarish omillaridan foydalanish bilan bog‘liq subsidiyalar, masalan ishchi kuchi, ishlab chiqarish vositalari, tabiiy resurslar va boshqalar), mahsulotlarga subsidiyalar bundan mustasno;

yalpi foyda va unga tenglashtirilgan daromadlar -yollanma ishchilarning mehnatiga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar, ishlab chiqarishga va importga sof soliqlar chegirilgandan keyin ishlab chiqaruvchi hisobida qo‘shilgan qiymatning qoladigan qismini, shuningdek uy xo‘jaliklarining aralash daromadlarini, ya’ni yakka tadbirkor yoki daromad oluvchining daromadidan ajratilmaydigan, bajarilgan ish uchun olingan to‘lovlarni ifodalaydi;

asosiy kapital iste’moli hisobot davrida asosiy kapital qiymatining moddiy va ma’naviy eskirishi va tasodifiy zararlanishi natijasida kamayishini ifodalaydi;

bozor ishlab chiqarish iqtisodiy ahamiyatga ega narxlarda, ya’ni tovarlar va xizmatlar talab va taklifiga sezilarli ta’sir qiluvchi narxlarda sotiladigan tovarlar va xizmatlar qiymatini o‘z ichiga oladi;

nobozor ishlab chiqarish institutsional birliklar tomonidan o‘zlarining yakuniy iste’moli uchun ishlab chiqarilgan, shuningdek boshqa institutsional birliklarga bepul yoki iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lmagan narxlarda taqdim etiladigan tovarlar va xizmatlar qiymatini o‘z ichiga oladi;

sotib olish narxi – sotib oluvchi tomonidan belgilangan vaqtida va joyga yetkazib berilgan tovar va xizmat birligi uchun to‘lanadigan narx. U tovarni yetkazib berish bo‘yicha savdo-vositachilik va transport xarajatlarini, shuningdek sotib oluvchi tomonidan to‘lanadigan mahsulotlarga soliqlarni o‘z ichiga olib, ammo mahsulotlarga subsidiyalarni va ajratilgan qo‘shilgan qiymat solig‘ini (QQS) o‘z ichiga olmaydi;

YAHM fizik hajm indeksi – o‘tgan yilning shu davr narxlaridagi joriy davr YAHMni (doimiy narxlardagi YAHM yoki real YAHM) o‘tgan yilning shu davr amaldagi narxlaridagi YAHM ga nisbati kabi hisoblanadi;


YAHM indeks-deflyatori – hudud iqtisodiyotida narxlarning o‘rtacha o‘zgarishini ifodalaydi va nominal YAHMning (amaldagi narxlardagi joriy davr YAHM) real YAHM ga nisbatini tavsiflaydi.

II. SANOAT

1-BO'LIM. SIRDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 15 190,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2022- yilning yanvar- dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga toʻgʻri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 56,8 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI*




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 12,7 % ga o'sishi kuzatildi..


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 87,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8 630,1 mldr. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 56,8 % ni tashkil etdi.




O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 5,1 % ni (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida – 5,0 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 3,0 % (3,6 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 21,8 % (17,6 %) va quyi texnologiyalisi – 70,1 % (73,8 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 5,1 % (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,7 %), boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 9,4 % (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,0 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 38,1 % (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 28,5 % (2022- yilning yanvar- dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,1 % (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 82,3 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag mahsulotlarning o‘sish sur’ati *O’tgan yilning mos davriga nisbatan, % da **


*Yirik shoxli qoramollar
uchun ozuqa*




Kepak




*Tarkibida alkaloidlar bo‘lgan yoki
bo‘limgan, lekin gormonlar yoki
antibiotiklar bo‘limgan medikamentlar*




*Yumshoq bug‘doy
va spelta uni*



Sellyuloza






2023-yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 17,3 ming tonna boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 1,0 % ga ko‘paygan), 1,5 ming tonna paxta, bint va shu kabi mahsulotlar (12,9 % oshgan) hamda 38,7 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (39,2 % ga kamayib) ishlab chiqarilib, past o‘sish sur’atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar- dekabr	Farqi +/-
Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa, tonna	20 687,0	3 222,0	-17 456,0
Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar, tonna	1 371,2	1 548,3	177,1
Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar, ming t.	17,1	17,3	0,2
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t.	63,7	38,7	-25,0
Paxta tolasi, ming t.	38,9	31,2	-7,7

Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlati ishlab chiqarish sanoati ulushi 0,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 1,9 % ga kamaygan bo‘lsa, 2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlati ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,2 % gacha, fizik hajm indeksi esa, 81,1 % ga ko‘paydi va ishlab chiqarish hajmi 15,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2022-yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 9,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 100,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 9,4 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 1,0 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 814,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2022-yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 116,4 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,1 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 11,0 % ga o‘sigan va ishlab chiqarish hajmi 2 428,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022-yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 85,6 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,4 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 60,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 31,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2022-yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 33,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 131,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 5,3 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 2 625,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2022-yilning yanvar-dekabr oylarida, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 59,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,4 %, fizik hajm indeksi 80,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 297,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 65,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 43,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 32,9 mlrd. so‘nni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-dekabr oylarida, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 122,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,1 % ni, fizik hajm indeksi 108,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 439,2 mlrd. so‘nni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 35,6 % ni tashkil etgan .


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,7 % ni, fizik hajm indeksi 97,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 148,4 mlrd. so‘nni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6 413,2 mldr. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 42,2 %) ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o’tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 12,7 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kvt.s	16 991,0	16 484,1	-506,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	198,5	140,1	-58,4

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 60,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmning 0,4 %) ni tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishslash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	39,4	40,9	1,5
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	15,5	13,9	-1,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishslash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 18,7 % ga kamaygan hamda chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 0,9 % ga kamayishi kuzatildi.


Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 044,2 mldr. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 109,2 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 20,0 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlar




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 1,0 % (2022- yil yanvar-dekabr oyлarida 58,5 %) ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yangiyer shahriga to'g'ri kelib 24,8 % Sirdaryo tumani 18,8 %, Guliston shahri 18,3 %, hamda Sayxunobod tumani 10,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (109,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yangiyer shahri (147,5 %), Oqoltin tumani (143,3 %) Guliston tumani (135,4 %) hamda Sardoba tumani (134,5 %) qayd etildi.

Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yangiyer shahriga to‘g‘ri kelib 24,8 % Sirdaryo tumani 18,8 % , Guliston shahri 18,6 %, hamda Sayxunobod tumani 10,6 % ni tashkil etdi.



Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Guliston shahriga to‘g‘ri kelib, 26,5 %, shuningdek, Sirdaryo tumani 25,8 % ni, Mirzaobod tumani 15,6 % ni, Boyovut tumani 7,5 % ni tashkil etdi.

2 259,9 mldr. so‘m


2021- yil yanvar-dekabr

574,5 mldr. so‘m

2022- yil yanvar-dekabr

699,8 mldr. so‘m

2023- yil yanvar-dekabr



Jami iste’mol mollari
ishlab chiqarish
hajmida nooziq-
ovqat
mahsulotlarning
ulushi

01

2021- yil

140,1 %

02

2022- yil

90,2 %

04

2023- yil

106,7 %

Guliston shahar **157,6**
185,4

Shirin shahar **41,3**
1,4

Yangiyer shahar **94,8**
44,8

Oqoltin tuman **62,3**
7,4

Boyovut tuman **88,5**
52,8

Sayxunobod tuman **173,2**
20,9

Guliston tuman **86,9**
21,7

Sardoba tuman **289,1**
48,4

Mirzaobod tuman **486,2**
109,2

Sirdaryo tuman **87,7**
180,5


Xovos tuman **51,9**
27,3

o‘sish sur’ati, %

mldr. so‘m

Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati




Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yangiyer shahriga to‘g‘ri kelib, 30,3 % ni, shuningdek, Sirdaryo tumani 16,7 % ni, Guliston shahri esa 15,8 % ni tashkil etdi.



Sirdaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari


Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Shirin shahriga to‘g‘ri kelib, 44,3 % ni, shuningdek, Sirdaryo tumani 20,4 % ni, Yangiyer shahri esa 7,1 % ni va Guliston shahri 7,0 % ni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyati




Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Shirin shahri (347 615,6 ming so‘m), Sirdaryo tumani (22 826,8 ming so‘m) hamda Yangiyer shahri (22 863,4 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (16 779,6 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi



Hisobot davrida kichik tadbirdorlik subyektlari tomonidan 4 753,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 31,3 % ni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 3 370,7 ming so‘m bo‘lgani holda, Yangiyer shahrida – 15 998,4 ming so‘mni, Guliston shahrida – 5 719,8 ming so‘mni va Sirdaryo tumanida – 4 224,4 ming so‘mni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyati




Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini

Bugungi kunda viloyatimizda 1 546 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 329 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 21,3 %) Guliston shahriga, 229 tasi (14,8 %) Sirdaryo tumaniga, 154 tasi (10,0 %) Mirzaobod tumaniga, 152 tasi (9,8 %) Boyovut tumaniga va 151 tasi (9,8 %) Yangiyer shahriga to‘g‘ri kelmoqda.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 48 ta loyiha bo'yicha 1 972,1 mld. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 38,5 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 583 ta yangi ish o'rirlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rirlari soni 12,9 % ga kamaygan. Shu bilan birga, 2022- yilning yanvar- dekabr oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining o'sganligi kuzatildi.

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi – korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo‘ljallangan, nosanoat bo‘lmalarga va kapital qurilishga mo‘ljallangan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi: ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar).

Sanoat ishlab chiqarishida o‘zgarish indekslari – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.

Iste’mol mollari – asosan shaxsiy iste’mol yoki foyda olish bilan bog‘liq bo‘limgan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi.

Natura ko‘rinishida sanoat ishlab chiqarishi hajmi – boshqa korxonalarga jo‘natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan, korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o‘z ichiga oladi, ya’ni yalpi mahsulot.

Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko‘ra guruhash Yevrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.

Mahalliylashtirish darajasi – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliylashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to‘lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo‘limgan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi.

Mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno).

Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda to‘ldiriladi.

III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI

1.BO'LIM. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI MAHSULOT (XIZMAT)LARI HAJMI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiylajmi 14 675,1 mlrd. so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 13 892,0 mlrd. so'mni, o'rmon xo'jaligi – 615,1 mlrd. so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 168,0 mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Sirdaryo viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik
xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiylajmi**



Ma'lumot uchun:

YAHM (YAQQ) tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 39,2 % ni tashkil etdi. Mazkur tarmoqning YAHM mutlaq o'sish sur'atiga ta'siri 2,4 f.p.ni tashkil etdi.

**Sirdaryo viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik
xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘sish sur’ati, % da**




2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 106,4 % ni shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 106,4 % ni, o‘rmon xo‘jaligi – 103,3 % ni, baliqchilik xo‘jaligi – 125,7 % ni tashkil qildi.

Ma'lumot uchun:

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida tarmoqning ijobiy o'sish sur'atiga asosan quyidagi mahsulotlarning 2022- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati qayd etilganligi orqali erishildi.


- | | |
|-------------------------|-----------|
| ✓ <i>Ovlangan baliq</i> | — 125,6 % |
| ✓ <i>Asal</i> | — 108,6 % |
| ✓ <i>Don</i> | — 108,4 % |
| ✓ <i>Poliz</i> | — 105,5 % |

Sirdaryo viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiylajimining taqsimlanishi, % da



2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiylajimining 94,7 % – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 4,2 % – o'rmon xo'jaligi va 1,1 % – baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mldr. so'm




2023-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Sayxunobod (2 042,8 mlrd. so'm), Boyovut (2 030,8 mlrd. so'm) va Xovos (1 815,3 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin (41,6 mlrd. so'm), Yangiyer (47,6 mlrd. so'm) va Guliston (374,6 mlrd. so'm) shaharlarini keltirib o'tish mumkin.

Ma'lumot uchun:


Sayxunobod va Boyovut tumanining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiyligi hajmi bo'yicha viloyatda yetakchi o'rinni egallashi, mazkur hududning go'sht, sut, don, kartoshka va sabzavotlar kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlar orasida yuqori ulushga ega bo'lganligi bilan izohlanadi.

Aksincha go'sht, sut, tuxum va sabzavotlar kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlar orasida Shirin shahri va Yangiyer shahri kam ulushga ega ekanligini qayd etish lozim.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati, % da



Yuqori o'sish sur'atlari Sardoba (114,1 %), Mirzaobod (109,3 %), Oqoltin (108,7 %) va Guliston (106,8 %) tumanlarida qayd etildi. Guliston shahri (101,4 %), Shirin shahri (101,7 %) va Xovos (102,2 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi qayd etildi.



Viloyatda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiylajimida eng yuqori va eng kam ulushga ega hududlar:



**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi
mahsulot (xizmat)larining umumiylajmida
kichik biznes va xususiy tadbirkorlik**


	<i>Hajmi mlrd. so‘m</i>	<i>O‘sish sur’ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
Sirdaryo viloyati	13 319,0	101,0	90,8
Guliston sh	368,9	101,2	98,5
Shirin sh	41,5	101,7	99,9
Yangiyer sh	47,5	103,4	99,7
Oqoltin	1 335,4	87,6	77,7
Boyovut	1 995,8	99,6	98,3
Sayxunobod	1 820,9	99,0	89,1
Guliston	1 611,7	106,8	99,3
Sardoba	1 328,1	97,6	79,0
Mirzaobod	1 222,8	109,8	82,0
Sirdaryo	1 752,2	107,3	96,9
Xovos	1 794,2	101,4	98,8

Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiylajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 90,8 % ni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkichni hudular bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz jami tarmoqqa nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yuqori ulushiga Shirin (99,9 %), Yangiyer (99,7 %) shaharlari va Guliston (99,3 %) tumanini keltirishimiz mumkin.


Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo‘jaliklarida, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 13 372,2 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 106,2 % ni tashkil etdi, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 7 713,5 mlrd. so‘mni (108,4 %), chorvachilik mahsulotlari – 5 658,7 mlrd. so‘mni (102,9 %) tashkil qildi.



Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Dehqonchilik mahsulotlari Chorvachilik mahsulotlari

Viloyatdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibini hududlar kesimida tahlil qilar ekanmiz eng katta ulush Boyovut (14,3 %), Sayxunobod (14,3 %) va Xovos (12,6 %) tumanlariga to‘g‘ri kelganligini kuzatishimiz mumkin.

mlrd. so‘m
o‘sish surʼati, % da

**Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi
mahsulotlari hajmining hududlar
kesimida taqsimlanishi, % da**




**Dehqonchilik mahsulotlarini
yetishtirishda yuqori ulushga ega
hududlar**

**Chorvachilik mahsulotlarini
yetishtirishda yuqori ulushga ega
hududlar**



Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 50,4 % – dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 36,4 % – fermer xo‘jaliklariga, 13,2 % – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.


Ma’lumot uchun:

Asosiy turdagи qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining ulushi quyidagicha:

- | | |
|--------------------------------|----------|
| ✓ <i>Go‘sht (tirik vaznda)</i> | — 88,9 % |
| ✓ <i>Sut</i> | — 88,5 % |
| ✓ <i>Kartoshka</i> | — 82,5 % |
| ✓ <i>uzum</i> | — 80,5 % |

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkichlar barcha hududlarda dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.

**Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha
xo‘jaliklar toifalari kesimida taqsimlanishi, % da**




2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Xovos tumanida (53,6 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Shirin shahrida (98,9 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Mirzaobod tumanida (30,6 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Shirin shahrida (0,0 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Xovos tumanida (39,7 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Shirin shahrida (1,1 %) qayd etildi.


Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda xo‘jalik toifalarining ulushi

Dehqonchilik mahsulotlari



Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, dehqonchilik mahsulotlari umumiy hajmining 58,9 % – fermer xo‘jaliklariga, 22,0 % – dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 19,1 % – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.


Chorvachilik mahsulotlari




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmining 89,1 % – dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 5,8 % – fermer xo‘jaliklariga, 5,1 % – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

2- BO'LIM. DEHQONCHILIK MAHSULOTLARI

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Xovos (1 133,4 mlrd. so‘m), Boyovut (1 069,6 mlrd. so‘m) va Sayxunobod (1 010,4 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin (6,2 mlrd. so‘m), Yangiyer (7,2 mlrd. so‘m) va Guliston (136,8 mlrd. so‘m) shaharlarini keltirib o‘tish mumkin. Yuqori o‘sish sur’atlari Sardoba (121,5 %), Mirzaobod (115,1 %) va Oqoltin (112,8 %) tumanlarida qayd etildi.



VILOYATDA YETISHTIRILGAN DONLI EKLAR



HUDUDLAR BO'YICHA DONLI EKLAR YETISHTIRISH



Don ekinlarini yetishtirish bo'yicha hududlar o'rtasida peshqadamlikni Boyovut tumani egalladi. Uning, don ekinlari umumi hajmidagi ulushi 16,8 %.

Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush Xovos (15,7 %), Sayxunobod (13,4 %) va Oqoltin (13,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Umumi hajmdagi past ulush, Shirin (0,1 %), Yangiyer (0,1 %) va Guliston (0,4 %) shaharlarida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Oqoltin (122,9 %), Sardoba (113,9 %) va Mirzaobod (112,3%) tumanlarida qayd etildi.

VILOYATDA YETISHTIRILGAN SABZAVOTLAR



Xo‘jalik toifalari orasida sabzavotlar yetishtirishning eng katta hajmi 154,7 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 51,1 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etildi.

2022- yilga nisbatan ko‘rsatib o‘tilgan davrlarda, fermer xo‘jaliklarida 1,3 %, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 0,4 % hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 39,1 % o‘sish qayd etildi.

HUDUDLAR BO‘YICHA SABZAVOTLAR YETISHTIRISH




Hududlar o‘rtasida sabzavot yetishtirish tarkibining asosiy qismini Xovos tumani egallamoqda, uning ulushi 17,2 % ga teng bo‘ldi. Shuningdek, yuqori ulush Sirdaryo (15,6 %) va Sayxunobod (13,9 %) tumanlarida qayd etildi.


Past ko‘rsatkichlar Yangiyer (0,04 %) va Shirin (0,2 %) shaharlarida kuzatildi.

Yuqori o‘sish sur’atlari Mirzaobod (117,7 %) tumani va Yangiyer (107,3 %) shaxrida qayd etildi.

VILOYATDA YETISHTIRILGAN KARTOSHKA



HUDUDLAR BO‘YICHA KARTOSHKA YETISHTIRISH



Kartoshka yetishtirish umumiy hajmining eng yuqori ulushi Sirdaryo tumani (26,4 %) hissasiga to‘g‘ri keldi. Bundan tashqari, Sayxunobod (21,6 %), Boyovut (13,5 %) va Guliston (9,6 %) tumanlarida ham kartoshka yetishtirishning yuqori ko‘rsatkichlari qayd etildi.

Kartoshka yetishtirishning umumiy hajmidagi ulushining eng past ko‘rsatkichlari Shirin shahri (0,3 %) va Yangiyer shahri (0,8 %)ga to‘g‘ri keldi.

Joriy davrda yuqori o‘sish sur’atlari Oqoltin (115,0 %) va Guliston (108,6 %) tumanlarida qayd etildi.


VILOYATDA YETISHTIRILGAN POLIZ EKLARINI



Poliz mahsulotlari yetishtirishning eng katta hajmi 194,4 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 66,1 % fermer xo'jaliklarida qayd etildi.

2022-yilning mos davriga nisbatan fermer xo'jaliklarida 8,3 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,9 % o'sish kuzatildi.

HUDUDLAR BO'YICHA POLIZ MAHSULOTLARI YETISHTIRISH




Poliz mahsulotlari yetishtirish umumiy hajmining eng katta ulushi Oqoltin tumani (21,5 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda, Xovos (19,6 %), Mirzaobod (15,6 %) va Sardoba (13,4 %) tumanlarida ham yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi.


Shuningdek, poliz mahsulotlari umumiy hajmida eng kam ulush, Shirin shahri (0,0 %) va Yangiyer shahri (0,0 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Joriy davrda yuqori o'sish sur'atlari Guliston (115,0 %) va Oqoltin (113,5 %) tumanlarida qayd etildi.

VILOYATDA YETISHTIRILGAN MEVA VA REZAVORLAR



HUDUDLAR BO'YICHA MEVA VA REZAVORLAR YETISHTIRISH



Yetishtirilgan meva va rezavorlar umumiy hajmida hududlar bo'yicha eng katta ulush Xovos (19,1 %), Boyovut (16,6 %) va Sayxunobod (15,2 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, meva va rezavorlar umumiy hajmida eng kam ulush, Shirin shahri (0,1 %) va Yangiyer shahrida (0,2 %) kuzatildi.

Ko'rsatib o'tilgan davrlarda yuqori o'sish sur'atlari Sardoba (117,7 %), Mirzaobod (111,6 %) va Sirdaryo (108,4 %) tumanlarida qayd etildi.


VILOYATDA YETISHTIRILGAN UZUM



Uzum yetishtirishning eng katta hajmi 11,9 ming t. yoki umumiylar yetishtirish hajmidan 80,5 % dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

2022-yilning mos davriga nisbatan fermer xo'jaliklarida 12,0 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 1,1 % hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 8,3 % o'sish kuzatildi.

HUDUDLAR BO'YICHA UZUM YETISHTIRISH




Yetishtirilgan uzumning umumiylar hajmida eng katta ulush Xovos (23,7 %), Boyovut (17,3 %), Guliston (16,5 %) va Sirdaryo (13,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, uzum yetishtirish umumiylar hajmidagi eng kam ulush Shirin (0,2 %) va Yangiyer shaharlarida (0,2 %) kuzatildi.

3- BO'LIM. CHORVACHILIK MAHSULOTLARI

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Sayxunobod (903,5 mlrd. so‘m), Boyovut (848,8 mlrd. so‘m) va Sirdaryo (700,2 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin (31,9 mlrd. so‘m), Yangiyer (35,5 mlrd. so‘m) va Guliston (201,3 mlrd. so‘m) shaharlarini keltirib o‘tish mumkin. Yuqori o‘sish sur’atlari Yangiyer shahrida (107,9 %) va Guliston (104,2 %), Sirdaryo (103,8 %) tumanlarida qayd etildi.



CHORVACHILIK MAHSULOTLARI YETISHTIRISH


2023- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari

	<i>Barcha toifadagi xo'jaliklar</i>		<i>shu jumladan:</i>					
			<i>fermer xo'jaliklari</i>		<i>dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari</i>		<i>qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>ming tonna</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>ming tonna</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>ming tonna</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>ming tonna</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>
Go'sht (tirik vaznda)	73,3	103,4	3,4	109,7	65,2	102,5	4,7	111,4
Sut	394,1	103,1	28,9	117,0	348,6	101,1	16,6	130,6
Tuxum, mln. dona	199,9	103,3	15,7	110,4	134,2	102,3	50,0	104,1
Baliq, tonna	9 058,3	125,6	4 664,1	110,0	215,0	107,8	4 179,2	150,6

2023- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan go'sht to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, go'sht yetishtirishning 4,6 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 88,9 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,5 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sut yetishtirishning 7,3 % fermer xo'jaliklariga, 88,5 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 4,2 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, olingan tuxumning 7,9 % fermer xo'jaliklariga, 67,1 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 25,0 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, ovlangan baliqlarning 51,5 % fermer xo'jaliklariga, 2,4 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 46,1 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.


VILOYATDA YETISHTIRILGAN GO'SHT (TIRIK VAZNDA)

Hajmi, ming t.




2023- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 73,3 ming t. go'sht yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, go'sht yetishtirishning eng katta hajmi 65,2 ming t. dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

O'sish sur'ati



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida go'sht yetishtirish hajmi 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda 103,4 % ni tashkil etdi. 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda fermer xo'jaliklarida 9,7 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarda 2,5 % hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 11,4 % o'sish qayd etildi.

Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2023- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan go'sht to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, go'sht yetishtirishning 4,6 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 88,9 % dehqon va tomorqa xo'jaliklarga, 6,5 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

HUDUDLAR BO‘YICHA GO‘SHT (TIRIK VAZNDA) YETISHTIRISH

	Hajmi, tonna	O‘sish sur’ati, % da	Hududlarning ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	73 277,0	103,4	100,0
Guliston sh	3 505,5	102,4	4,8
Shirin sh	511,4	103,3	0,7
Yangiyer sh	556,0	111,7	0,8
Oqoltin	8 162,1	102,3	11,1
Boyovut	10 362,7	102,3	14,1
Sayxunobod	11 170,7	102,8	15,2
Guliston	9 007,2	105,9	12,3
Sardoba	7 737,8	103,0	10,6
Mirzaobod	6 150,5	102,3	8,4
Sirdaryo	8 910,4	104,8	12,2
Xovos	7 202,7	103,4	9,8


Yetishtirilgan go‘shtning umumiyligi eng yuqori ulush Sayxunobod tumaniga (15,2 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Boyovut (14,1 %), Guliston (12,3 %), Sirdaryo (12,2 %), va Oqoltin (11,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Past ko‘rsatkichlar Shirin (0,7 %) va Yangiyer (0,8 %) shaharlarida kuzatildi.

2023- yilning yanvar - dekabrdagi yuqori o‘sish sur’atlari Yangiyer shahrida (111,7 %) va Guliston (105,9 %), Sirdaryo (104,8 %) tumanlarida qayd etildi.

VILOYATDA YETISHTIRILGAN SUT

Hajmi, ming t.



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 394,1 ming t. sut yetishtirildi. Sut yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, sut yetishtirishning eng katta hajmi 348,6 ming t. dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etilganligini ta’kidlash lozim.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida sut yetishtirish hajmi 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda 103,1 % ni tashkil etdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirganda fermer xo‘jaliklarida 17,0 %, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 1,1 % hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 30,6 % o‘sish qayd etildi.

Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

O‘sish sur’ati



2023- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan sut to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, sut yetishtirishning 7,3 % fermer xo‘jaliklari hissasiga, 88,5 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 4,2 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim.

HUDUDLAR BO‘YICHA SUT YETISHTIRISH

	Hajmi, tonna	O‘sish sur’ati, % da	Hududlarning ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	394 086,0	103,1	100,0
Guliston sh	7 449,2	102,3	1,9
Shirin sh	1 230,0	100,1	0,3
Yangiyer sh	1 633,1	103,6	0,4
Oqoltin	30 763,3	102,6	7,8
Boyovut	67 541,4	103,3	17,2
Sayxunobod	71 891,6	101,9	18,2
Guliston	45 090,1	102,5	11,4
Sardoba	31 171,9	103,7	7,9
Mirzaobod	49 584,8	104,5	12,6
Sirdaryo	50 963,5	104,4	12,9
Xovos	36 767,1	102,0	9,4


Sut yetishtirishning umumiy hajmiga nisbatan eng yuqori ulush Sayxunobod tumaniga (18,2 %) to‘g‘ri keldi, shuningdek, Boyovut (17,2 %), Sirdaryo (12,9 %), Mirzaobod (12,6 %) va Guliston (11,4 %) tumanlarida ham yuqori ko‘rsatkichlar qayd etildi.

Sut yetishtirishning umumiy hajmiga nisbatan eng past ulush Shirin (0,3 %), Yangiyer (0,4 %) va Guliston (1,9 %) shaharlarida kuzatildi.

2022- yilga nisbatan yuqori o‘sish sur’atlari Mirzaobod (104,5 %), Sirdaryo (104,4 %) va Sardoba (103,7 %) tumanlarida qayd etildi.

VILOYATDA YETISHTIRILGAN TUXUM

Hajmi, mln. dona




2023- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 199,9 mln. dona tuxum yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tuxum yetishtirishning eng katta hajmi 134,2 mln. dona dehqon va tomorqa xo'jaliklarda qayd etilganligini ta'kidlash lozim.


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida tuxum yetishtirish hajmi 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda 103,3 % ni tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda fermer xo'jaliklarda 10,4 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarda 2,3 % hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 4,1 % o'sish kuzatildi.

O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2023- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan tuxum to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tuxum yetishtirishning 7,9 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 67,1 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 25,0 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

HUDUDLAR BO‘YICHA TUXUM YETISHTIRISH

	Hajmi, ming dona	O‘sish sur’atlari, % da	Hududlarning ulushi, % da
Sirdaryo viloyati			
Guliston sh	23 511,7	101,0	11,8
Shirin sh	685,0	100,9	0,3
Yangiyer sh	931,8	101,2	0,5
Oqoltin	8 077,5	102,7	4,0
Boyovut	14 511,1	107,1	7,3
Sayxunobod	16 587,8	104,5	8,3
Guliston	18 408,6	102,9	9,2
Sardoba	35 477,2	104,1	17,7
Mirzaobod	41 710,9	103,3	20,9
Sirdaryo	20 864,6	104,1	10,4
Xovos	19 170,8	101,2	9,6


Tuxum yetishtirishning boshqa hududlarga nisbatan eng yuqori ko‘rsatkichlari Mirzaobod tumani hissasiga to‘g‘ri keldi va uning ulushi 20,9 % bo‘ldi. Shuningdek, yuqori ulush Sardoba (17,7 %) tumani va Guliston (11,8 %) shahrida qayd etildi.

Tuxum yetishtirishning umumiy hajmidagi ulushi past bo‘lgan hudud sifatida Shirin (0,3 %), Yangiyer (0,5 %) shaharlari va Oqoltin (4,0 %) tumanida qayd etildi.

2022- yilga nisbatan yuqori o‘sish sur’atlari Boyovut (107,1 %) va Sayxunobod (104,5 %) tumanlarida kuzatildi.

VILOYATDA OVLANGAN BALIQLAR


Hajmi, t.




2023-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 9 058,3 tonna baliq ovlandi. Baliq ovlash ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, baliq ovlashning eng katta hajmi 4 664,1 tonna fermer xo'jaliklarda qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida baliq ovlash hajmi 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda 125,6 % ni tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda fermer xo'jaliklarida 10,0 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 7,8 % hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 50,6 % o'sish kuzatildi.



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2023- yil yanvar-dekabr oylarida ovlangan baliq to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, baliq ovlashning 51,5 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 2,4 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 46,1 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

HUDUDLAR BO‘YICHA OVLANGAN BALIQLAR

	Hajmi, t.	O‘sish sur’ati, % da	Hududlarning ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	9 058,3	125,6	100,0
Guliston sh	156,5	100,8	1,7
Shirin sh	0,0	0,0	0,0
Yangiyer sh	18,6	108,8	0,2
Oqoltin	302,8	104,6	3,3
Boyovut	491,7	131,8	5,5
Sayxunobod	878	2,0 m.	9,7
Guliston	401,7	103,5	4,4
Sardoba	1 375,9	119,5	15,2
Mirzaobod	4 506,1	129,1	49,8
Sirdaryo	389,7	102,7	4,3
Xovos	537,3	100,4	5,9

Hududlar o‘rtasida umumiy ovlangan baliqlar hajmiga nisbatan eng katta ulush Mirzaobod (49,8 %) tumaniga to‘g‘ri keldi. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush Sardoba (15,2 %), Sayxunobod (9,7 %) va Xovos (5,9 %) tumanlarida ham qayd etildi.

Tahlil qilingan davrda ovlangan baliqlarning umumiy hajmiga nisbatan eng kam ulush Shirin (0,0 %), Yangiyer (0,2 %) va Guliston (1,7 %) shaharlari kuzatildi.

2022-yilga nisbatan yuqori o‘sish sur’atlari Sayxunobod (2,0 m.), Boyovut (131,8 %) va Mirzaobod (129,1 %) tumanlarida qayd etildi.

4- BO'LIM. CHORVA MOLLARI VA PARRANDALAR BOSH SONI


2024- yilning 1- yanvar holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	<i>Barcha toifadagi xo'jaliklar</i>		<i>shu jumladan:</i>					
			<i>fermer xo'jaliklari</i>		<i>dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari</i>		<i>qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati % da</i>
Yirik shoxli qoramollar	507,1	102,9	43,6	109,4	441,0	101,1	22,5	134,5
<i>shundan, sigirlar</i>	181,3	102,9	18,8	113,4	154,3	100,6	8,2	131,2
Qo'y va echkilalar	394,2	104,2	65,6	115,2	307,5	100,4	21,1	137,8
Otlar	16,8	103,6	4,5	112,2	11,4	97,9	0,9	163,4
Parrandalar	4 698,6	108,9	329,0	118,3	1 415,1	100,7	2 954,5	112,2

2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,6 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 87,0 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 4,4 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 16,6 % fermer xo'jaliklariga, 78,0 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,4 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, otlarning umumiy sonidan 26,8 % fermer xo'jaliklariga, 67,9 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,3 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 7,0 % fermer xo'jaliklariga, 30,1 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 62,9 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

VILOYATDA MAVJUD YIRIK SHOXLI QORAMOLLAR BOSH SONI

Soni, ming bosh




2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 507,1 mingtaga yetdi. Yirik shoxli qoramollar bosh sonini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, eng katta hajmi 441,0 ming bosh dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.


2024- yilning 1- yanvar holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni 2023- yilning mos davri bilan solishtirganda 102,9 % ni tashkil etdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda fermer xo'jaliklarda 9,4 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarda 1,1 % hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 34,5 % o'sish qayd etildi.

O'sish sur'ati



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2024- yil 1- yanvar holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollar bosh sonining 8,6 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 87,0 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariiga, 4,4 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

HUDUDLAR BO‘YICHA YIRIK SHOXLI QORAMOLLAR BOSH SONI

	Soni, bosh	O‘sish sur’ati, % da	Hududlarning ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	507 147	102,9	100,0
Guliston sh	19 727	102,3	3,9
Shirin sh	4 544	100,1	0,9
Yangiyer sh	6 098	104,6	1,2
Oqoltin	40 529	105,2	8,0
Boyovut	82 983	101,2	16,4
Sayxunobod	76 166	101,7	15,0
Guliston	72 504	103,1	14,3
Sardoba	41 045	104,5	8,1
Mirzaobod	53 451	106,0	10,5
Sirdaryo	56 313	102,8	11,1
Xovos	53 787	101,9	10,6


Yirik shoxli qoramollar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Boyovut tumaniga (16,4 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Sayxunobod (15,0 %), Guliston (14,3 %) va Sirdaryo (11,1 %) tumanlarida ham qayd etildi.

Shu bilan birga, yirik shoxli qoramollar umumiy bosh sonidagi eng past ulush Shirin (0,9 %) va Yangiyer (1,2 %) shaharlarida kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslanganda, 2023- yilga nisbatan eng yuqori o‘sish sur’atlari Mirzaobod (106,0 %) va Oqoltin (105,2 %) tumanlarida qayd etildi.

VILOYATDA MAVJUD SIGIRLAR BOSH SONI

Soni, ming bosh




2024- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni 181,3 mingtaga yetdi. Sigirlar bosh sonini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, eng katta hajmi 154,3 ming bosh dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etilganligini ta’kidlash lozim.


2024- yilning 1- yanvar holatiga sigirlar bosh soni 2023- yilning mos davri bilan solishtirganda 102,9 % ni tashkil etdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda fermer xo‘jaliklarida 13,4 %, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 0,6 % hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 31,2 % o‘sish qayd etildi.

O‘sish sur’ati



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



2024- yil 1- yanvar holatiga sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, sigirlar bosh sonining 10,4 % fermer xo‘jaliklari hissasiga, 85,1 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 4,5 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim.

■ Fermer xo'jaliklari

■ Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

■ Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

HUDUDLAR BO'YICHA SIGIRLAR BOSH SONI

	Soni, bosh	O'sish sur'ati, % da	Hududlarning ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	181 344	102,9	100,0
Guliston sh	8 375	101,5	4,6
Shirin sh	1 788	100,7	1,0
Yangiyer sh	2 666	102,5	1,5
Oqoltin	12 966	101,2	7,1
Boyovut	28 919	102,9	15,9
Sayxunobod	30 142	103,0	16,6
Guliston	18 061	105,1	10,0
Sardoba	13 679	102,9	7,5
Mirzaobod	18 609	105,0	10,3
Sirdaryo	21 747	103,3	12,0
Xovos	24 392	100,6	13,5

Hududlar o'rtaida sigirlar umumiy bosh sonining eng ko'p qismi Sayxunobod tumaniga (16,6 %) to'g'ri keldi.


Bundan tashqari, yuqori ulush Boyovut (15,9 %), Xovos (13,5 %) va Sirdaryo (12,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Sigirlar umumiy bosh sonining eng kam ulushi Shirin (1,0 %) va Yangiyer (1,5 %) shaharlarda kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslanganda, eng yuqori o'sish sur'atlari Guliston (105,1 %), Mirzaobod (105,0 %) va Sirdaryo (103,3 %) tumanlarida qayd etildi.

VILOYATDA MAVJUD QO‘Y VA ECHKILAR BOSH SONI

Soni, ming bosh




2024- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni 394,2 mingtaga yetdi. Qo‘y va echkilar bosh sonini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, eng katta hajmi 307,5 ming bosh dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etilganligini ta’kidlash lozim.

2024- yilning 1- yanvar holatiga qo‘y va echkilar bosh soni 2023- yilning mos davri bilan solishtirganda 104,2 % ni tashkil etdi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirganda fermer xo‘jaliklarda 15,2 %, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarda 0,4 % hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 37,8 % o‘sish qayd etildi.

Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

O‘sish sur’ati



2024- yil 1- yanvar holatiga qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, qo‘y va echkilar bosh sonining 16,6 % fermer xo‘jaliklari hissasiga, 78,0 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 5,4 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib

HUDUDLAR BO‘YICHA QO‘Y VA ECHKILAR BOSH SONI

	Soni, bosh	O‘sish sur’ati, % da	Hududlarning ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	394 217	104,2	100,0
Guliston sh	11 727	102,8	3,0
Shirin sh	4 709	100,8	1,2
Yangiyer sh	10 411	100,6	2,6
Oqoltin	30 937	101,3	7,9
Boyovut	71 742	105,0	18,2
Sayxunobod	41 663	101,2	10,6
Guliston	32 373	109,4	8,2
Sardoba	40 326	102,8	10,2
Mirzaobod	47 479	109,9	12,0
Sirdaryo	38 090	105,4	9,7
Xovos	64 760	101,5	16,4

Hududlar kesimida qo‘y va echkilar umumiyl bosh sonining eng katta ulushi Boyovut tumaniga (18,2 %) to‘g‘ri keldi.


Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush Xovos (16,4 %), Mirzaobod (12,0 %) va Sayxunobod (10,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Qo‘y va echkilar umumiyl bosh sonining eng kam ulushi Shirin (1,2 %) va Yangiyer (2,6 %) shaharlarida kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslanganda, 2023- yilga nisbatan eng yuqori o‘sish sur’atlari Mirzaobod (109,9 %), Guliston (109,4 %) va Sirdaryo (105,4 %) tumanlarida qayd etildi.

VILOYATDA MAVJUD OTLAR BOSH SONI

Soni, ming bosh




2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni 16,8 mingtaga yetdi. Otlar bosh sonini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, eng katta hajmi 11,4 ming bosh dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.


2024- yilning 1- yanvar holatiga otlar bosh soni 2023- yilning mos davri bilan solishtirganda 103,6 % ni tashkil etdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda fermer xo'jaliklarida 12,2 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 63,4 % o'sish qayd etildi.

Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



O'sish sur'ati



2024- yil 1- yanvar holatiga otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, otlar bosh sonining 26,8 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 67,9 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,3 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

HUDUDLAR BO‘YICHA OTLAR BOSH SONI

	Soni, bosh	O‘sish sur’ati, % da	Hududlarning ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	16 808	103,6	100,0
Guliston sh	191	104,4	1,1
Shirin sh	98	105,4	0,6
Yangiyer sh	126	100,8	0,7
Oqoltin	1 568	102,4	9,3
Boyovut	2 861	112,3	17,0
Sayxunobod	2 918	82,7	17,4
Guliston	2 676	106,3	15,9
Sardoba	235	112,4	1,5
Mirzaobod	1 684	116,6	10,0
Sirdaryo	2 676	112,9	15,9
Xovos	1 775	106,0	10,6


Hududlar o‘rtasida otlar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Sayxunobod tumaniga (17,4 %) to‘g‘ri keldi. Shu kabi, yuqori ulush Boyovut (17,0 %), Guliston (15,9 %) va Sirdaryo (15,9 %) tumanlarida ham qayd etildi.

Otlar umumiy sonining eng kam ulushi Shirin (0,6 %), Yangiyer (0,7 %) va Guliston (1,1 %) shaharlarda kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslanganda, eng yuqori o‘sish sur’atlari Mirzaobod (116,6 %), Sirdaryo (112,9 %) va Sardoba (112,4 %) tumanlarida qayd etildi.


VILOYATDA MAVJUD PARRANDALAR BOSH SONI

Soni, ming bosh



2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni 4 698,6 mingtaga yetdi. Parrandalar bosh sonini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, eng katta hajmi 2 954,5 ming bosh qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda qayd etilganligini ta'kidlash lozim.


O'sish sur'ati



2024- yilning 1- yanvar holatiga parrandalar bosh soni 2023- yilning mos davri bilan solishtirganda 108,9 % ni tashkil etdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda fermer xo'jaliklarda 18,3 %, dehqon va tomorqa xo'jaliklarda 0,7 % hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 12,2 % o'sish qayd etildi.

Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2024- yil 1- yanvar holatiga parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, parrandalar bosh sonining 7,0 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 30,1 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga hamda 62,9 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

■ Fermer xo'jaliklari

■ Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

■ Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

HUDUDLAR BO‘YICHA PARRANDALAR BOSH SONI

	Soni, bosh	O‘sish sur’ati, % da	Hududlarning ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	4 698 623	108,9	100,0
Guliston sh	1 946 830	100,9	41,4
Shirin sh	16 885	124,0	0,4
Yangiyer sh	61 123	5,9 m.	1,3
Oqoltin	308 351	101,8	6,6
Boyovut	244 682	117,8	5,2
Sayxunobod	147 462	102,9	3,1
Guliston	201 526	120,5	4,3
Sardoba	648 719	126,8	13,8
Mirzaobod	518 075	114,4	11,0
Sirdaryo	380 080	106,6	8,1
Xovos	224 890	102,4	4,8

Hududlar bo‘yicha parrandalar umumiy bosh sonining eng ko‘p qismi Guliston shahriga (41,4 %) to‘g‘ri keldi, shuningdek, Sardoba (13,8 %), Mirzaobod (11,0 %) va Sirdaryo (8,1 %) tumanlarida ham yuqori ko‘rsatkichlar qayd etildi.

Hududlar bo‘yicha parrandalar umumiy bosh sonining eng kam qismi Shirin (0,4 %) va Yangiyer (1,3 %) shaharlariga to‘g‘ri keldi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslanganda, o‘tgan yilga nisbatan eng yuqori o‘sish sur’atlari Yangiyer shahri (5,9 m.), Sardoba tumani (126,8 %) va Shirin (124,0 %) shaharlarida qayd etildi.

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo‘jaliklarida, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Dehqonchilik mahsuloti – hisobot davrida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko‘p yillik yosh ko‘chatlarni o‘sirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan yetishtirish qiymatlarining o‘zgarishi yig‘indisidir.

Chorvachilik mahsuloti – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o‘sirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirish qiymatlarini o‘z ichiga oladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

Ovchilik – ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko‘rsatish shuningdek, parvarishxona va fermalarda hayvonlarni saqlash, ko‘paytirish va davolash xarajatlari hisobga olinadi.

O‘rmon xo‘jaligi – o‘rmon va o‘rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. O‘rmon xo‘jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o‘rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzliksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong‘inga qarshi dasturlarni ishlab chiqarish kiradi. O‘rmon xo‘jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag‘ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko‘chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o‘suvchi qo‘ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong‘oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

Baliqchilik xo‘jaligi – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohalarining mahsuloti va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko‘paytirish va yaxshilashni o‘z ichiga oladi.

Qishloq xo‘jaligi ekinlarining yig‘ilgan yalpi hosili qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, fermer va dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida asosiy va takroriy, bog‘larning qator oralaridagi qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yig‘ib olingan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi.

Fermer xo‘jaliklari – ijaraaga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon va tomoqra xo‘jaliklari – oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a’zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a’zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo‘jalik toifalari bo‘yicha barcha yosh guruuhlaridagi asosiy turdagи chorva mollarini o‘z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo‘y va echkilar, cho‘chqalar va h.k.)

Go‘sht yetishtirish – so‘yish uchun sotilgan hamda o‘z xo‘jaligida so‘yilgan barcha turdagи qishloq xo‘jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznni o‘z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog‘ib olingan sut va og‘iz sutini qo‘sghan holda, haqiqatda sog‘ib olingan sigir, echki, qo‘y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi yetishtirishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagи parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorda jo‘ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o‘z ichiga oladi.

Jun yetishtirish – xo‘jalikning ichki ehtiyojlariga sarflangani hamda junni saqlash va tashish jarayonida yo‘qotilganini qo‘sghan holda, qo‘y, echki, tuyalardan haqiqatda qirqib olingan natura vazndagi (qirqib olingandan keyingi vaznda) barcha junlarni o‘z ichiga oladi, bunga tullah Juni, echki tiviti hamda takroriy qirqib olingan junlar ham qo‘shiladi.

IV. INVESTITSIYA VA QURILISH ISHLARI

1- BO'LIM. ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida Sirdaryo viloyatida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 15 349,1 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 113,9 % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi, mlrd. so'mda

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>umumi hajmga nisbatan, % da</i>	
			<i>2022-y.</i>	<i>2023-y.</i>
Jami	15 349,1	113,9	100,0	100,0
markazlashgan investitsiyalar:	609,6	46,6	9,7	4,0
respublika byudjeti	495,2	61,4	6,0	3,2
Moliya vazirligi huzuridagi suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	13,3	20,9	0,5	0,1
tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	-	-	-	-
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	101,1	23,1	3,2	0,7
markazlashmagan investitsiyalar:	14 739,5	121,1	90,3	96,0
korxona mablag'lari	1 251,5	103,0	9,0	8,2
aholi mablag'lari	367,7	144,6	1,8	2,4
to'g'ridan-to'g'ri, boshqa va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	12 423,5	121,6	75,9	80,9
<ul style="list-style-type: none">ulardan:				
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	9 722,7	119,8	60,3	63,3
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	696,8	142,9	3,6	4,5

So‘nggi 5 yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko‘rsatmoqdaki, u deyarli 1,9 martaga ko‘payib, o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning hajmi dinamikasi, mlrd . so‘m



So‘nggi yillardagi ularning o‘sish sur’atlarini ko‘radigan bo‘lsak, 2019- yilda eng yuqori o‘sish sur’ati qayd etilganini va 1,9 m. ga yetganini, shundan so‘ng o‘sish tendensiyasi davom etib kelmoqda va joriy yilda 113,9 % o‘sish sur’ati qayd etilganini ko‘rshimiz mumkin.


Asosiy kapitalga investitsiyalar o‘sish sur’atlari dinamikasi, % da




Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2022- yilga nisbatan 5,7 punktga kamayib, 4,0 % ni yoki 609,6 mlrd. so‘nni tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 14 739,5 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalarning 96,0 foizi o‘zlashtirilib, 2022- yilga nisbatan 5,7 punktga ko‘paydi



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning 89,5 foizi yoki 13 729,9 mld. so‘mi jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxona, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 10,5 % yoki 1 619,2 mld. so‘m moliyalashtirildi.




Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar



2023- yil yanvar-dekabr oylarida O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan 101,1 mlrd. so‘m investitsiyalar o‘zlashtirilib, 2022- yilga nisbatan 23,1 % ni tashkil etdi. Ularning jami markazlashgan investitsiyalar hajmidagi ulushi esa 16,9 punktga kamayib, 16,6 % qayd etildi.

Sirdaryo viloyati bo‘yicha Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan infrastruktura, iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 2022- yilga nisbatan 61,4 % ni yoki 495,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Ularning jami markazlashgan investitsiyalar hajmidagi ulushi esa 19,6 punktga ko‘payib, 81,2 % ni qayd etdi. Shuningdek, suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan investitsiyalar 2022- yilga nisbatan 20,9 % ni, yoki 13,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Ularning jami markazlashgan investitsiyalar hajmidagi ulushi, mos ravishda 2,7 % punktga kamayib 2,2 % ni tashkil etdi.

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 1 251,5 mlrd. so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 8,2 foizini tashkil etdi.

Bevosita to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalardan Sirdaryo viloyati bo‘yicha 9 722,7 mlrd. so‘m yoki 2022- yilga nisbatan 3,0 % punktga ko‘paygan holda jami investitsiyalardagi ulushi 63,3 % ga teng investitsiyalar o‘zlashtirildi.




Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlar va o‘sish sur’atlari aholi mablag‘lari hisobiga to‘g‘ri kelib, 2022-yilga nisbatan 144,6 foizni tashkil etdi.

Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan 2 700,8 mlrd. so‘m investitsiyalar o‘zlashtirilib, jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi 17,6 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan 696,8 mlrd. so‘m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 4,5 foizini tashkil etdi) asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi.

Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 2,4 foizi yoki 367,7 mlrd. so‘m o‘zlashtirildi. Aholi mablag‘lari hisobidan asosan uy-joylar qurish sohasida investitsiya faoliyati amalga oshirilgan.

Sirdaryo viloyatida markazlashmagan moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jamiga nisbatan, % da)



Sirdaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan ulushi, % da



Elektr-gaz ta'minoti faoliyati turi bo'yicha barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 7 852,5 mlrd.so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, umumiy investitsiyalar hajmining 51,2 foizini tashkil etdi.

Qayta ishslash sanoatida jami 4 896,7 mlrd. so'm yoki viloyat bo'yicha jami investitsiyalar hajmining 31,9 foizi o'zlashtirilgan bo'lib, uning tarkibidan 14,2 foizi yoki 2 180,0 mlrd. so'mi to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechak ishlab chiqarish sohasiga tegishlidir.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 775,6 mlrd.so'm yoki o'zlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmining 5,1 foizini tashkil etdi.

Ijtimoiy sohadagi eng muhim faoliyatlardan biri bu turar-joy qurilishi hisoblanadi. Ushbu faoliyat turi bo'yicha barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 272,1 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 1,8 % ni tashkil etdi.

Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalari bo'yicha barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 375,9 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 2,5 foizni tashkil etdi.

**Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha hududlar kesimida
asosiy kapitalga investitsiyalar**


	<i>Jami investitsiyalar, mlrd. so‘m</i>	<i>Shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo‘yicha: (jamiga nisbatan, % da)</i>							
		<i>Respublika byudjeti</i>	<i>Korxona va tashkilot mablag‘i</i>	<i>Aholi mablag‘i</i>	<i>Xorijiy investitsiya va kreditilar</i>	<i>Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivoylatirish jamg‘armasi</i>	<i>Tiklanish va tarraqqiyot jamg‘armasi</i>	<i>Tijorat banki kreditlari va boshaq qarz mablag‘lari</i>	
Sirdaryo viloyati	15 349,1	3,2	8,2	2,4	81,6	0,1	-	4,5	
<i>shaharlar</i>									
Guliston sh.	1 312,2	13,6	31,7	4,6	38,3	0,2	-	11,6	
Shirin sh.	269,5	0,4	52,0	1,6	19,1	0,0	-	26,9	
Yangiyer sh.	744,1	6,7	3,9	1,6	85,4	0,6	-	1,8	
<i>tumanlarlar</i>									
Boyovut	7 811,6	0,3	0,6	0,3	98,7	0,0	-	0,1	
Guliston	295,5	11,5	26,5	15,3	30,3	0,2	-	16,2	
Mirzaobod	754,6	8,6	18,3	4,3	58,1	0,0	-	10,7	
Oqoltin	471,8	4,5	5,8	2,0	80,5	0,5	-	6,7	
Sardoba	672,8	3,8	13,1	2,6	71,5	0,0	-	9,0	
Sayxunobod	270,1	6,5	13,9	6,6	56,4	0,0	-	16,6	
Sirdaryo	1 778,0	2,4	11,6	6,4	69,2	0,0	-	10,4	
Xovos	968,9	4,1	4,3	2,7	88,3	0,3	-	0,3	

Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hududiy tarkibida eng yuqori ulushlar Guliston shahrida – hududdagi jami investitsiyalarning 13,6 foizi, Guliston tumanida – 11,5 % va Mirzaobod tumanida 8,6 % miqdorida kuzatildi.

Korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan investitsiyalar bo‘yicha eng yuqori ulush Shirin shahrida kuzatilib, bu hududda o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 52,0 foizini tashkil etdi. Shuningdek, Guliston shahrida 31,7 %, Guliston tumanida 26,5 % va Mirzaobod tumanida 18,3 foiz qayd etilganini ko‘rishimiz mumkin.

Jalb qilingan moliyalashtirish manbalari tarkibida xorijiy investitsiya va kreditlar alohida o‘ringa ega. Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami investitsiyalardagi ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlar Boyovut tumanida kuzatilib hududda o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 98,7 foizini tashkil etdi, keyingi o‘rinlarda Xovos tumanida 88,3 %, Yangiyer shahrida 85,4 % va Oqoltin tumanida 80,5 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar




Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilishi bo‘yicha 2022- yilga nisbatan eng yuqori o‘sish sur’ati 2,6 m. ga o‘sib, Yangiyer shahrida kuzatildi. Ushbu natijani un ishlab chiqarishni kengaytirish va yangi zamonaviy issiqxonalar tashkil etish bilan izohlash mumkin.

Shuningdek, Sardoba, Oqoltin va Boyovut tumanlarida ham yuqori o‘sish sur’ati kuzatilib, mos ravishda 2022- yilga nisbatan 164,4 %, 156,8 % va 127,0 % o‘sish sur’ati kuzatildi. Boyovut tumanida 1 500 MVt va 1 574 MVt quvvatga ega yangi elektr stansiyalarini qurish, Sardoba tumanida paxtachilik klasterini kengaytirish va Oqoltin tumanida yangi zamonaviy paxta zavodini qurilishi kabi yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda

Investitsion faollikning eng past o‘sish sur’atlari Xovos tumanida – 48,9 % (investitsiyalar hajmi 968,9 va Shirin shahrida 80,5 foiz (269,5 mlrd. so‘m) qayd etildi.


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning asosiy qismi, ya’ni 71,0 foizi viloyatning uch hududida, jumladan Boyovut tumanida – 50,9 %, Sirdaryo tumanida– 11,6 %, Guliston shahrida – 8,5 %, Xovos tumanida – 6,3 %, Mirzaobod tumanida – 4,9 %, Yangiyer shahrida – 4,8 %, Sardoba tumanida – 4,4 %, investitsiyalar o‘zlashtirildi.

Hududlarda o‘zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar (jamiga nisbatan % da)




Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy kapitalga investitsiyalar

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar Boyovut tumanida 56 770,0 ming so‘m (yoki 2022- yilga nisbatan taqqoslaganda –124,8 %), Yangiyer shahrida 15 697,7 ming so‘m (yoki 2,5 m.), va Shirin shahrida – 13 962,6 ming so‘m (yoki 80,0 %) miqdorida qayd etildi.



Sirdaryo viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 8 571,7 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 55,8 foizini tashkil etdi, qurilish-montaj ishlari bo'yicha 5 407,4 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 35,2 %) va boshqa xarajatlarga 1 370,0 mlrd. so'm (9,0 %) o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi




Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlaringin ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Guliston tumanida kuzatildi 67,6 % yoki 199,9 mlrd. so'm.

Qurilish-montaj ishlaringin ulushi bo'yicha eng quyi daraja Oqoltin tumanida kuzatilib, 9,4 % ni yoki 44,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ammo, Oqoltin tumanida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich qayd etilib 86,2 % yoki 406,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Joriy hisobot davrida yangi qurilishga yo'naltirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 11 638,4 mlrd. so'mga yetdi hamda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 75,8 foizini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 2 474,0 mlrd. so'mni tashkil etdi hamda viloyatdagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 16,1 foizini tashkil etdi. Qolgan 8,1 %, ya'ni 1 236,7 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi dinamikasi (jamiga nisbatan % da)



Yangi qurilishga yo‘naltirilgan investitsiyalarning ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich, quvvati 1 500 Mvt va 1 574 Mvt bo‘lgan yangi elektr stansiyalari qurish loyihalari bo‘yicha o‘zlashtirilgan investitsiyalar natijasida Boyovut tumanida kuzatilib, u 99,3 % ni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida korxona va tashkilotlarning kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiyaga investitsiyalar ulushi bo‘yicha yuqori natijalar Oqoltin tumanida – 83,4 % (393,6 mlrd. so‘m), Sardoba tumanida – 63,2 % (425,5 mlrd. so‘m), Xovos tumanida – 44,8 % ga tengligi (433,9 mlrd. so‘m) kuzatildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi
(2023- yil yanvar-dekabr)

	<i>Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so‘m</i>	<i>Jamiga nisbatan % da:</i>		
		<i>Yangi qurilish</i>	<i>kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya</i>	<i>Boshqa yo‘nalishlar</i>
Sirdaryo viloyati	1 5349,1	75,8	16,1	8,1
<i>shaharlar</i>				
Guliston sh.	1 312,2	46,9	35,4	17,7
Shirin sh.	269,5	42,5	43,3	14,2
Yangiyer sh.	744,1	85,3	12,4	2,3
<i>tumanlarlar</i>				
Boyovut	7 811,6	99,4	0,2	0,4
Guliston	295,5	59,2	18,3	22,5
Mirzaobod	754,6	71,2	18,6	10,2
Oqoltin	471,8	6,4	83,4	10,2
Sardoba	672,8	23,1	63,2	13,7
Sayxunobod	270,1	58,9	19,1	22,0
Sirdaryo	1 778,0	62,3	16,0	21,7
Xovos	968,9	35,4	44,8	19,8

2-BO'LIM. ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN XORIJIY INVESTITSIYA VA KREDITLAR

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 12 524,6 mlrd. so‘m (dollar ekvivalentida 1 064,0 mln. AQSH doll.) yoki 2022- yilga nisbatan 117,6 % asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtirildi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 81,6 % ni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiya va kreditlar, (mlrd. so‘m)




To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 12 423,5 mlrd. so‘m o‘zlashtirilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida 101,1 mlrd. so‘m xorijiy kreditlar o‘zlashtirildi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar hamda O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlarning jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmidagi ulushi mos ravishda 99,2 % va 0,8 % ni tashkil etdi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 9 722,7 mlrd. so‘m yoki jamiga nisbatan 77,6 foizni, boshqa investitsiya va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar 2 700,8 mlrd. so‘mni yoki jamiga nisbatan 21,6 % ni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi (% da)



Xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 10 005,0 mlrd. so‘mni yoki jamiga nisbatan 79,9 foizni va mos ravishda xorijiy kreditlar 2 519,6 mlrd. so‘mni yoki 20,1 % ni tashkil qildi.


Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd. so‘m

	<i>Jami</i>	<i>Shujumladan:</i>		
		<i>to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar</i>	<i>O‘zR kafolati ostida xorijiy kreditlar</i>	<i>Boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar</i>
Sirdaryo viloyati	12 524,6	9 722,7	101,1	2 700,8
<i>shaharlar</i>				
Guliston sh.	502,9	59,7	101,1	342,1
Shirin sh.	51,4	29,3	-	22,1
Yangiyer sh.	635,0	605,7	-	29,3
<i>tumanlarlar</i>				
Boyovut	7 707,5	7 426,1	-	281,4
Guliston	89,5	0,0	-	89,5
Mirzaobod	438,4	33,1	-	405,3
Oqoltin	379,9	368,2	-	11,7
Sardoba	480,8	480,8	-	0,0
Sayxunobod	152,2	64,0	-	88,2
Sirdaryo	1 231,3	240,8	-	990,5
Xovos	855,7	415,0	-	440,7

2023- yil yanvar-dekabr oylarida Sirdaryo viloyatida elektr va gaz bilan ta’minalash faoliyat turida xorijiy investitsiya va kreditlar salmoqli o‘zlashtirilib, 7 712,7 mlrd. so‘mni yoki jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning 61,6 foizini tashkil etdi.

Qayta ishslash sanoatida bu ko‘rsatkich 4 186,9 mlrd. so‘mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 33,4 foizini qayd etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar
va kreditlar tarkibi, % da**



**3- BO'LIM. IJTIMOIY SOHA OBYEKTLARINING QURILISHI
2023- yil yanvar-dekabr**

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida umumiy maydoni 83,6 ming kv.m (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 84,1 %) bo'lgan 408 ta turar joylar, jumladan 46,6 ming kv.m. (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 80,6 %) bo'lgan 230 ta turar joylar qishloq joylarda ishga tushirildi.

Jami asosiy kapitalga investitsiyalarda turar joy qurilishiga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 272,1 mlrd. so'mni yoki jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 1,8 % ni tashkil etdi.

Turar-joylarni ishga tushirish

	Xonadonlar soni, birlik	Maydoni, kv.m
Sirdaryo viloyati	408	83 546
<i>shaharlar</i>		
Guliston sh.	65	11 117
Shirin sh.	6	924
Yangiyer sh.	30	2 718
<i>tumanlar</i>		
Boyovut	22	4 339
Guliston	25	3 682
Mirzaobod	24	6 024
Oqoltin	6	720
Sardoba	39	3 815
Sayxunobod	12	1 036
Sirdaryo	152	43 412
Xovos	27	5 759

4- BO'LIM. QURILISH ISHLARI

2023- yil yanvar-dekabr


2023- yilning yanvar-dekabr oylarida Sirdaryo viloyatida jami 3 903,8 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2022- yilga nisbatan 107,9 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining dinamikasi, mlrd. so‘m




Qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari shuni ko‘rsatdiki, bino va inshootlar qurilishi 63,1 % ulushni (o‘sish sur’ati 2022- yilga nisbatan 110,1 %), fuqarolik obyektlari qurilishi 34,7 % (107,3 %) va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 2,2 % (72,2 %)ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari



2023- yil yanvar-dekabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 79,2 % yoki 3 092,4 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi




2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari

	<i>Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish</i>	<i>O‘sish sur’ati, % da</i>
Sirdaryo viloyat bo‘yicha	3 092,4	113,2
Guliston sh.	840,5	104,1
Shirin sh.	195,1	93,8
Yangiyer sh.	164,1	180,2
Boyovut	70,7	196,9
Guliston	120,6	135,0
Mirzaobod	754,9	94,1
Oqoltin	65,0	280,5
Sardoba	187,5	188,6
Sayxunobod	62,9	124,3
Sirdaryo	488,0	106,8
Xovos	143,1	212,6

2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo‘yicha yuqori hajm, Guliston shahrida (840,5 mlrd. so‘m), Mirzaobod tumanida (754,9 mlrd. so‘m), Sirdaryo tumanida (488,0 mlrd. so‘m) va Shirin shahrida (195,1 mlrd. so‘m) qayd etildi.

Bino va inshootlar qurilishi



Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishi hajmi va o‘sish sur’ati

	<i>Bino va inshootlar qurilishi</i>	<i>O‘sish sur’ati, % da</i>
Sirdaryo viloyat bo‘yicha	2 462,0	110,1
Guliston sh.	553,1	63,2
Shirin sh.	179,0	159,0
Yangiyer sh.	154,9	108,5
Boyovut	73,5	85,0
Guliston	157,6	137,2
Mirzaobod	522,0	2,8 m.
Oqoltin	47,2	119,7
Sardoba	189,8	2,8 m.
Sayxunobod	60,3	91,6
Sirdaryo	354,3	79,8
Xovos	170,3	165,0

Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Mirzaobod tumani (2022- yilga nisbatan 2,8 m.), Sardoba tumani (2,8 m.) Xovos tumaniga (165,0 %) to'g'ri keldi.

Fuqarolik obyektlari qurilishi

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 21,8 % ni tashkil etdi va 2022- yilga nisbatan 2,7 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 78,2 % (2,7 % punktga kamayish) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi va o'sish sur'ati

	<i>Fuqarolik obyektlari qurilishi, mlrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Sirdaryo viloyat bo'yicha	1 356,0	107,3
Guliston sh.	473,9	3,4 m.
Shirin sh.	56,7	45,2
Yangiyer sh.	51,5	81,5
Boyovut	28,0	187,8
Guliston	48,8	138,1
Mirzaobod	360,4	53,5
Oqoltin	29,4	136,3
Sardoba	72,1	106,4
Sayxunobod	20,6	150,2
Sirdaryo	182,6	2,4 m.
Xovos	32,0	96,1

Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Guliston shahrida (2022- yilga nisbatan 3,4 m.), Sirdaryo tumanida (2,4 m. %) va Boyovut tumani (187,8 %)ga to'g'ri keldi.

Ixtisoslashgan qurilish ishlari

Kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2022- yilga nisbatan **1,1 %** punktga kamaydi.

Hududlar kesimida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur’ati

	<i>Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari</i>	<i>O‘sish sur’ati, % da</i>
Sirdaryo viloyat bo‘yicha	85,8	72,2
Guliston sh.	15,2	58,5
Shirin sh.	5,2	164,4
Yangiyer sh.	4,9	166,9
Boyovut	5,8	153,6
Guliston	8,4	94,3
Mirzaobod	13,9	39,8
Oqoltin	3,3	18,1
Sardoba	4,0	102,3 m.
Sayxunobod	3,6	98,8
Sirdaryo	14,6	85,5
Xovos	6,9	17,7 m.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o‘sish sur’ati Sardoba (2022- yilga nisbatan 102,3 m.), Xovos tumanlarida (17,7 m.), Yangiyer (166,9 %) va Shirin (164,4 %) shaharlariga to‘g‘ri keldi.

Korxona turlari bo'yicha qurilish ishlari

Yirik tashkilotlar tomonidan **930,4** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **120,9** % ni tashkil etdi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan **2 477,5** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **100,2** % ni tashkil etdi

Noramsmiy sektorda **495,9** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **133,1** % ni tashkil etdi

Yirik tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 930,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2022- yilga nisbatan ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlarining o'sish sur'ati 120,9 % ga yetdi va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,4 % ga ko'payib, 23,8 % ni tashkil etdi.

Yirik tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Shirin shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 73,5 %), Sardoba tumani (58,4 %) va Xovos tumani (57,9 %) ga to'g'ri keldi.

Qurilish ishlari hajmida yirik tashkilotlar ulushi, % da

Shirin shahri **73,5**

58,4 Sardoba tumani

Xovos tumani **57,9**

41,5 Guliston tumani

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 63,5 % to'g'ri kelib, 2022- yilga nisbatan 5,1 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilga nisbatan 100,2 % ni tashkil etgan holda 2 477,5 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Guliston shahrida (929,9 mlrd. so'm yoki umumiy ko'rsatkichning 89,2 %), Mirzaobod (640,9 mlrd. so'm yoki 71,5 %) va Sirdaryo tumanida (276,0 mlrd. so'm yoki 50,0 %) qayd etildi.

Qurilish ishlari hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi, % da.



Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 12,7 foizni yoki 495,9 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilga nisbatan o‘sish sur’ati 133,1 foizga yetdi. Shundan 270,2 mlrd. so‘mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to‘g‘ri kelib, 2022- yilga nisbatan 174,3 foizni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 7,1 mlrd. so‘mni va o‘sish sur’ati 66,2 foizni, 218,6 mlrd. so‘mlik yakka tartibda turar-joylarni ta’mirlash ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 105,7 foizni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Sirdaryo tumanida (134,3 mlrd. so‘m yoki 2022- yilga nisbatan o‘sish sur’ati 2,3 m. ni tashkil etdi), Guliston shahrida (84,8 mlrd. so‘m yoki 165,4 %), Guliston tumani (55,6 mlrd. so‘m yoki 2,0 m.) va Boyovut tumanida (44,2 mlrd. so‘m yoki 107,0 %) qayd etildi.


Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor ulushi, % da



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 109,8 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 3 794,0 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 2,8 % va 97,2 % ni tashkil etdi.

Nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Shirin shahrida (ushbu shahridagi qurilish ishlari umumiy hajmining 98,2 foizi), Mirzaobod (97,9 foizi) va Sardoba tumanida (97,8 foizi) qayd etildi.

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari, mldr so'm



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari

	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyat bo'yicha	4 312,1	105,8
Guliston sh.	10 656,7	97,5
Shirin sh.	12 480,6	99,7
Yangiyer sh.	4 457,5	98,3
Boyovut	779,5	99,3
Guliston	2 729,8	131,4
Mirzaobod	11 245,4	98,5
Oqoltin	1 441,6	99,2
Sardoba	3 810,0	193,0
Sayxunobod	1 026,9	99,3
Sirdaryo	4 058,2	100,3
Xovos	2 063,1	150,2

Hududlar kesimida 2023- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Shirin shahri – 12 480,6 ming so'm (yoki 2022- yilnga nisbatan 99,7 %) ko'rsatkich bilan egalladi, undan keyingi o'rirlarni mos ravishda Mirzaobod tumani – 11 245,4 ming so'm (98,5 %), Guliston shahri – 10 656,7 ming so'm (97,5 %), Yangiyer shahri – 4 457,5 ming so'm (98,3 %), Siradryo tumani – 4 058,2 ming so'm (100,3 %) egalladi.

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Nomoliyaviy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar bu – real mablag‘larni yaratishga yo‘naltirilgan investitsiyalar bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi: asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar, kapital ta’mirlashga xarajatlar, nomoddiy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar (patentlar, litsenziyalar, dasturiy mahsulotlar, yer maydonlaridan va tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari va boshqalar).

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarga barcha turdagи qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarни montaj qilish bo‘yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo‘jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi korxona va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

Investorlar – yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o‘z mablag‘lari, qarz mablag‘lari yoki jalb qilingan mablag‘larni investitsiya ko‘rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta’minlab beruvchi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bu – korxonaga to‘liq egalik qiluvchi yoki korxona aksionerlik kapitalining 10 foizidan kam bo‘lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya’ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqigi ega bo‘lgan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

Buyurtmachilar – investitsion jarayonning qatnashchilari. Buyurtmachi sifatida investorning o‘zi, shuningdek, investor tomonidan amaldagi korxonalarни, binolarni, inshootlarni yangi qurilishi, qayta ta’mirlash, kengaytirish va texnik qayta qurollantirishni amalga oshirishlari uchun vakil etib tayinlangan jismoniy va yuridik shaxslar faoliyat ko‘rsatishlari mumkin. Shu bilan birga buyurtmachi investitsion jarayon qatnashchilarining tadbirkorlik va boshqa faoliyatiga, agarda ular orasidagi shartnomada nazarda tutilmagan bo‘lsa, aralashmasliklari lozim.

Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta’mirlash, kapital ta’mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarни montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.

V. XIZMATLAR

1- BO'LIM. XIZMATLAR SOHASI RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyat farovonligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Resurslar sarfini tejovchi samarali innovatsion iqtisodiyotni barpo etish jarayonida xizmatlar sohasi alohida o'rinn tutadi, chunki u, tovar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, materiallar sarfini kamligiga, xarajatlarni tez qoplanishi va yuqori daromadlilikka ega.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

1. Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi

2. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

3. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari

4. Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi

5. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi


6. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmalarning o'sish sur'atlari




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar - dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6 099,0 mldr. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 1 080,2 mldr. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda 2022- yilning yanvar - dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 110,9 % ni tashkil etdi.


Yanvar - dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, mldr. so'm




Yanvar - dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarning o'sish sur'atlari, % da



Yanvar - dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarning o'sish sur'atlari, % da



Yanvar - dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm



2- BO'LIM. IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA ISHLAB CHIQARILGAN XIZMATLAR

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sohasining o'rni, mazkur sohada iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarini ishlab chiqarish

Xizmat turlarining nomi	2022- y. yanvar-dekabr		2023- y. yanvar-dekabr	
	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	5 018,8	110,7	6 099,0	110,9
<i>shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i>				
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	287,8	127,8	350,9	120,7
moliyaviy xizmatlar	1 590,3	114,5	2 003,4	115,0
transport xizmatlari	646,8	101,9	762,4	104,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>597,2</i>	<i>100,2</i>	<i>703,9</i>	<i>104,4</i>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	144,4	109,4	187,4	115,8
savdo xizmatlari	1 256,6	106,2	1 486,5	107,4
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	134,5	108,3	154,5	105,6
ta'lif sohasidagi xizmatlar	213,8	100,3	236,1	107,2
sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	105,8	107,9	136,0	112,1
ijara xizmatlari	111,4	116,8	95,2	78,5
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	118,5	105,4	144,8	105,5
shaxsiy xizmatlar	97,6	106,6	120,8	107,7
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	49,7	121,3	52,5	97,1
boshqa xizmatlar	261,6	134,8	368,5	129,5

2023- yilning yanvar- dekabr oylarida jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirma narxlardagi o'sish sur'ati 110,9 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmining o'sishidagi asosiy omil, moliyaviy xizmatlar 15,0 % ga (ko'rsatilgan xizmatlar jami hajmining mutlaq o'sishiga ta'siri 4,9 punkt), savdo xizmatlari 7,4 % ga (1,8 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 20,7 % ga (1,2 punkt) hamda boshqa xizmatlar 29,5 ga (3,0 punkt) o'sishi hisoblanadi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar egallaydi. 2023- yil yanvar- dekabr oylarida bu xizmatlarning ulushi 32,8 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar savdo xizmatlari (24,4 %), transport xizmatlari (12,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,7 %), shuningdek, ta'lif sohasidagi xizmatlar bo'yicha (3,9 %) qayd etildi.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmida biroz kam o'sish qayd etilib, ularning ulushi 0,9 % ga yetdi.

Taqqoslash uchun:

2022- yilning yanvar - dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmning 31,7 % ni tashkil etgan. 2022- yilning shu davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarining ulushi ham eng kichik ko'rsatkichga ega bo'lgan – 1,0 %.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da




Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri kelmoqda. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

Yanvar- dekabr oylarida avtomobil transporti xizmatlari

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi,
mlrd. so'm**



**Ko'rsatilgan xizmatlarning
o'sish sur'atlari, % da**




2023- yilning yanvar - dekabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 762,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2022- yilning yanvar- dekabr oylariga nisbatan ushbu xizmatlar hajmi 4,9 % ga oshdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ulushi 12,5 % ni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida o'sish sur'ati (% da)
va xizmatlar hajmi (mlrd. so'm)
(2023- yil yanvar - dekabr oylarida)**

Hududlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	762,4	104,9
<i>shaharlar:</i>		
Guliston	191,7	103,6
Shirin	12,4	104,0
Yangiyer	123,5	105,2
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	29,0	105,7
Guliston	51,1	104,2
Mirzaobod	54,6	99,8
Oqoltin	21,0	104,6
Sardoba	41,5	104,1
Sayxunobod	39,5	105,8
Sirdaryo	146,0	108,7
Xovos	52,1	104,6

**Tashish turlari bo'yicha
avtomobil transporti
xizmatlarining tarkibi, % da**



Yo'lovchi tashish
Yuk tashish

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Yanvar- dekabr oylarida savdo xizmatlari

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, mlrd. so'm



Ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'atlari, % da



Taqqoslash uchun:

2022- yilning yanvar - dekabr oylarida ularning hajmi 1 256,6 mlrd. so'mga yoki umumiy hajmnинг 25,0 % ulushiga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlarining tarkibi, % da (2023- yil yanvar- dekabr oylarida)

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosи, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda - **8,8 %**

**Ulgurji savdo xizmatlari
(avtomobillar va mototsikllar
savdosidan tashqari) -
22,6 %**

**Avtomobillar
va mototsikllar savdosidan tashqari
chakana savdo bo'yicha xizmatlar -
68,6 %**

Hududlar kesimida o'sish sur'ati (% da) va xizmatlar hajmi (mlrd. so'm) (2023- yil yanvar - dekabr oylarida)

Hududlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo shaharlar:		
Guliston	365,5	106,0
Shirin	27,8	106,6
Yangiyer	150,4	107,0
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	118,5	110,8
Guliston	76,7	109,3
Mirzaobod	131,8	105,8
Oqoltin	59,2	114,4
Sardoba	61,8	106,7
Sayxunobod	96,3	110,2
Sirdaryo	286,9	105,0
Xovos	111,6	110,9


Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratishda, innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi orqali chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va ularning bo'linmalari faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish, moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Yanvar - dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, mlrd. so'm



Ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'atlari, % da



Hududlar kesimida o'sish sur'ati (% da) va xizmatlar hajmi (mlrd. so'm) (2023- yil yanvar - dekabr oylarida)

Hududlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	2 003,4	115,0

shaharlar:


Guliston	1 230,1	110,4
Shirin	15,6	150,5
Yangier	69,9	92,4

tumanlar:

Boyovut	131,6	123,7
Guliston	75,6	134,8
Mirzaobod	36,9	114,5
Oqoltin	56,3	132,4
Sardoba	66,7	145,5
Sayxunobod	81,2	130,5
Sirdaryo	166,5	116,0
Xovos	73,0	136,9

Moliyaviy xizmatlarning hajmi 413,1 mlrd. so'mga oshdi va 2 003,4 mlrd. so'mga yetdi. Jami xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi 32,8 % ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 115,0 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2023- yil yanvar- dekabr oylarida)





- 1. Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar
- 2. Sug'urta bo'yicha xizmatlar
- 3. Yordamchi moliyaviy faoliyat

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'ssatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi. AKTdan faol foydalanish infratuzilmasi yuqori kadrlar salohiyati va yangi ko'rinishdagi texnika va texnologiyalarga asoslangan.

2023- yilning yanvar - dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi,
mlrd. so'm**




**Ko'rsatilgan xizmatlarning
o'sish sur'atlari, % da**



2023- yilning yanvar - dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 350,9 mlrd. so'm darajasida qayd etilgan.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da
(2023- yil yanvar - dekabr oylarida)**



- Kompyuterda dasturlashtirish bo'yicha xizmatlar
- Telekommunikatsiya xizmatlari
- Noshirlik xizmatlari
- Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

**Hududlar kesimida o'sish sur'ati (% da)
va xizmatlar hajmi (mlrd. so'm)
(2023- yil yanvar - dekabr oylarida)**

Hududlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	350,9	120,7
<i>shaharlar:</i>		
Guliston	201,4	122,3
Shirin	3,8	117,5
Yangiyer	9,3	120,0
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	24,9	117,8
Guliston	15,1	120,5
Mirzaobod	15,2	118,0
Oqoltin	10,0	117,6
Sardoba	12,5	118,7
Sayxunobod	14,7	117,7
Sirdaryo	26,4	119,4
Xovos	17,6	117,1

3- BO'LIM. HUDUDLAR KESIMIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi iqtisodiy hududlarni o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va moddiy ne'matlarni iste'mol qilishni ta'minlaydi.

Deyarli barcha hududlar bo'yicha bozor xizmatlari hajmining oshishiga moliyaviy va transport xizmatlari, savdo va aloqa xizmatlari, shu jumladan, axborotlashtirish kabi turdag'i xizmatlar ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida ishlab chiqarilgan xizmatlar (2023- yil yanvar - dekabr oylarida)

Hududlar nomi	Jami			Aholi jon boshiga		
	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da		Hajm, ming so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2023- y.	2022- y.		2023- y.	2022- y.
Sirdaryo viloyati	6 099,0	110,9	110,7	6 737,0	108,7	108,5
<i>shaharlar:</i>						
Guliston	2694,8	110,5	107,4	27 554,1	107,2	104,6
Shirin	82,7	113,1	107,9	4 285,9	112,5	107,0
Yangiyer	434,7	110,4	102,3	9 171,5	107,2	99,4
<i>tumanlar:</i>						
Boyovut	520,4	126,2	140,0	3 782,2	124,0	137,6
Guliston	265,6	115,6	110,0	3 375,4	112,9	107,4
Mirzaobod	304,5	110,3	125,5	3 820,8	108,0	122,4
Oqoltin	198,6	116,6	112,5	3 585,3	114,7	110,3
Sardoba	238,4	122,9	108,1	3 415,3	121,1	106,3
Sayxunobod	271,6	117,1	109,3	3 298,3	115,1	107,1
Sirdaryo	786,3	110,1	108,1	5 786,2	108,2	106,2
Xovos	301,4	115,2	116,9	2 972,1	113,4	114,9

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib turmush sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozorining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omil bu – aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Hajmning
o'sishi –
1 082,6
ming so'mga

Xizmatlar
hajmi -
6 737,0
ming so'm

O'sish
sur'ati -
108,7 %



2023- yilning yanvar - dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6 737,0 ming so'mga yetdi. 2022- yilning yanvar - dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 108,7 % ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun:

2022- yilning yanvar - dekabr oylariga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 5 654,4 ming so'mni tashkil etgan.

4- BO'LIM. XIZMATLAR SOHASIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN KORXONA VA TASHKILOTLAR TO'G'RISIDA MA'LUMOT


Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarini qamrab oladi.

2024- yilning 1- yanvar holatiga viloyatda xizmat ko'rsatish va servis sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni 8 759 taga yetdi. 2022- yilning shu davriga nisbatan ularning o'sishi 81,4 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2023- yilning 1- yanvar holatiga viloyatda xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 10 761 tani tashkil etgan.

2024- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 65,2 % ga, sanoatda 11,5 % ga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 15,5 % ga yetdi. Korxona va tashkilotlarning 7,8 % qurilish sohasida faoliyat yuritadi.

**2024- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)**



Taqqoslash uchun: 2023- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 62,4 %, sanoat 13,3 %, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 14,7 % ni, qurilish 9,6 % ni tashkil etdi.

**2024- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)**




Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (49,7 %).

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 7,5 % ni tashkil etdi.


Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 3,7 % ga yetdi.

**2024- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)**



2023- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, 2022- yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni **-2 002** taga kamayib, buning natijasida ularning soni 6 614 tani, o‘sish sur’ati esa 76,9 % ni tashkil etdi.

**2024- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumot
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)**



Ko‘plab xalqaro ekspertlarning fikriga ko‘ra, xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotida zamonaviy tarkibiy o‘zgartirishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda zaruriy shart hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining tarmoqlar tarkibi va texnologiyalari tobora murakkablashib borishi, mahsulot sifati va rang-barangligini oshirish, shuningdek, yuqori texnologiyali xizmatlar tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxona va tashkilotlar, uy xo‘jaliklarining samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga yordam beradi.

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Xizmat sohasi bu – korxona, tashkilotlar va shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan har xil turdagи xizmatlarning takror ishlab chiqarilishini o‘z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Boshqacha qilib aytganda, bu savdo, kasbiy va maishiy xizmatlarni ko‘rsatishga ixtisoslashgan mamlakat iqtisodiyotining tarmog‘idir.

Xizmatlar iste’molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o‘zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko‘maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Xizmatning o‘ziga xos xususiyati, xizmatni bajarish va uni iste’mol qilish davrining bir xil vaqtga to‘g‘ri kelishi hisoblanadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar hajmida ko‘rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksizsiz hisoblangan to‘lovlar hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti sifatida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to‘laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda, **bozor uchun ishlab chiqarilgan xizmatlar** hisoblanadi.

“Ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlar hajmi” statistik ko‘rsatkichi – ma’lum bir vaqt davomida ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini o‘lchovchi, iste’molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo‘sghan holda) ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

Ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlar hajmi bu – xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va xizmat ko‘rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanadigan barcha xizmatlar ishlab chiqaruvchilari (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari qiymatidir.

Iste’molchilar tomonidan xizmatlar uchun to‘lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o‘tkazish, elektron to‘lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko‘rsatilgan xizmatlar (agar to‘lov so‘mda amalga oshirilmagan bo‘lsa), xizmatlarga to‘lovlarni amalga oshirish sanasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so‘mning belgilangan kursi bo‘yicha qayta hisoblangan shartnomalar bo‘yicha aniqlanadi.

Elektron to‘lovlar – texnik vositalar, axborot texnologiyalari va axborot tizimlari xizmatlaridan foydalangan holda elektron to‘lov hujjatlari orqali naqd pulsiz to‘lovlarni amalga oshirish.

Elektron pullar – O‘zbekiston Respublikasi hududida elektron pullar emitentlari tomonidan chiqariladigan pullar bo‘lib, faqat O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida nomlanishi lozim.

Faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlarni tasniflash, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichiga (keyingi o‘rinlarda MST deb ataladi) muvofiq amalga oshiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari aloqa sohasidagi xizmatlarni, shu jumladan telefon, teleks, telegraf, radioeshittirish, elektron pochta, suniy yo‘ldosh, faksimile va boshqalarni ishlatib ovozli ma’lumot, tasvir va boshqa axborot oqimlarini uzatish xizmatlarini qamrab oladi.

Bozor xizmatlari hajmi MST bo‘yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo‘yicha shakllantiriladi.

Moliyaviy xizmatlar Markaziy bank, tijorat banklari va boshqa moliya-kredit tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladi. Bu guruh xizmatlarga banklarning moliyaviy vositachiligi xizmatlari (moliyaviy lizing, kredit berish), shu jumladan, masofaviy bank xizmatlari (internet-banking, mobil-banking), investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy tashkilotlarning moliyaviy vositachiligi, moliya bozorlari (fond va valyuta birjalari) faoliyatining yordamchi moliyaviy vositachilik va boshqa moliyaviy xizmatlar kiradi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik yo‘li bilan olingan foizlar daromadi (ular uchun to‘lov miqdorida), shuningdek, moliya muassasasining kredit berish yoki depozitni saqlash bo‘yicha xizmatlari uchun yig‘im bilan hisobga olinadi.

Transport xizmatlari transportning barcha turlarida yuklarni va yo‘lovchilarni tashish faoliyati, shuningdek, transportirovka qilishda yordamchi xizmat turlari, jumladan, logistik xizmatlarni o‘z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa yashash uchun joylar kabi qisqa muddatli turar joy bilan ta’minalash va oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarni o‘z ichiga oladi.

Savdo xizmatlari ulgurji va chakana xizmatlarni birlashtirib, shuningdek, boshqa shaxs manfaatlari uchun tovarlarni oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalari yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan vositachilik xizmatlari hamda avtomobil va motosikllarni ta'mirlash xizmatlarini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari, ushbu faoliyat tashkilotning asosiy faoliyati yoki yo'qligidan qat'iy nazar aks ettiriladi.

Ta'lif sohasidagi xizmatlar oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar, umumta'lif, maktabgacha ta'lif davlat muassasalarida tijorat asosida ta'lif olishni, shuningdek, radio va televide niye, Internet-kanallar va pochta aloqalarini qo'shgan holda har qanday darajadagi xususiy ta'lif olish va xohlagan kasbga o'qishni qamrab oladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar statsionar shifoxona muassasalari, poliklinikalar, stomatologiya muassasalari va tibbiy laboratoriylar tomonidan pul asosida ko'rsatilgan kompleks xizmatlarni qamrab oladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstrukturlik va texnologik ishlar hamda ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

VI.TRANSPORT

1 BO'LIM. FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN TRANSPORT KORXONALARI SONI

2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, transport sohasida 329 ta korxona va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) faoliyat ko'rsatmoqda. 2022- yilning mos davriga nisbatan ularning soni 229 taga kamaygan.

1- yanvar holatiga ko'ra, transport sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Jami faoliyat ko'rsatayotganlar

329 birlit

2023 y.

558 birlit

2022 y.

545 birlit

2021 y.

600 birlit

2020 y.

573 birlit

2019 y.

Kichik biznes subyektlari

328 birlit

557 birlit


542 birlit

597 birlit

570 birlit

2 BO'LIM. TRANSPORT FAOLIYATINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Avtomobil transport bo'yicha yuk tashish



2023- yilning yanvar - dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashish hajmi 19 773,5 ming tonnani tashkil etib, bu esa 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,5 % ga ko'paygan. 2022- yilning mos davriga nisbatan yuk tashish hajmi 300,6 ming tonnaga oshgan.

Bir tonna o'rtacha tashish masofasi, (km)



2023- yil yanvar - dekabr oylarida avtomobil transporti bir tonna tashishning o'rtacha masofasi 17,5 km.ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilda bu ko'rsatkich 17,4 km, 2021- yilda 16,4 km, 2020- yilda 13,9 km, 2019- yilda esa 14,7 km.ni tashkil etgan.

Sirdaryo viloyatining hududlari kesimida yuk tashish
 (2023- yilning yanvar – dekabr holatiga)

	<i>Hajm, ming tonna</i>	<i>Jami hajmga nisbatan ulushi, % da</i>	<i>O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, % da</i>
Jami	19 773,5	100,0	101,5
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	3 539,4	17,9	102,1
Shirin	751,4	3,8	101,5
Yangiyer	1 522,6	7,7	100,2
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	1 403,9	7,1	101,5
Guliston	1 384,1	7,0	101,5
Mirzaobod	2 194,9	11,1	100,6
Oqoltin	632,8	3,2	101,6
Sardoba	593,2	3,0	121,9
Sayxunobod	3 005,6	15,2	100,2
Sirdaryo	2 906,7	14,7	100,9
Xovos	1 838,9	9,3	100,5


Avtomobil transportining yuk aylanmasi
(2023- yilning yanvar – dekabr holatiga)



Sirdaryo viloyatining hududlari kesimida yuk aylanmasi
(2023- yilning yanvar – dekabr holatiga)

	Hajmi, ming tonna-km	Jami hajmga nisbatan ulushi, % da	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Jami	346 354,5	100,0	102,2
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	78 968,7	22,8	104,1
Shirin	12 122,4	3,5	102,2
Yangiyer	19 395,9	5,6	100,4
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	28 401,1	8,2	103,5
Guliston	22 513,0	6,5	100,7
Mirzaobod	51 953,2	15,0	94,1
Oqoltin	11 429,7	3,3	99,2
Sardoba	12 122,4	3,5	119,3
Sayxunobod	21 474,0	6,2	103,9
Sirdaryo	63 382,9	18,3	105,1
Xovos	24 591,2	7,1	102,2

Avtomobil transporti bo'yicha yo'lovchi tashish



2023- yilning yanvar - dekabr oylarida avtomobil transporti yo'lovchi tashish 87,7 mln. yo'lovchini tashkil etib, bu 2022- yilning shu davriga nisbatan 3,0 % ga ko'pdir. 2020- yilda koronavirus pandemiyasi bilan bog'liq cheklolvar yo'lovchi tashish hajmining qisqarishi va ayrim hollarda butunlay to'xtatilishiga ta'sir ko'rsatdi. Natijada, shu yilda barcha transport turlari bo'yicha o'sish sur'atlarining sekinlashuvi namoyon bo'ldi.

Bir nafar yo'lovchini o'rtacha tashish masofasi, (km)

2023 y.	30,8	2023- yil yanvar – dekabr oylarida avtomobil transportida bitta yo'lovchi tashishning o'rtacha masofasi 30,8 km.ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilda bu ko'rsatkich
2022 y.	30,8	30,8 km, 2021- yilda 30,5 km, 2020- yilda 30,4 km, 2019- yilda esa 28,5 km.ni tashkil etgan.
2021 y.	30,5	
2020 y.	30,4	
2019 y.	28,5	

Sirdaryo viloyatining hududlar kesimida yo‘lovchi tashish
(2023- yilning yanvar – dekabr holatiga)

	<i>Hajmi, ming kishi</i>	<i>Jami hajmga nisbatan ulushi, % da</i>	<i>O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, % da</i>
Jami	87 715,3	100,0	103,0


shaharlar:

Guliston	19 122,0	21,8	103,0
Shirin	1 754,3	2,0	103,0
Yangiyer	6 929,5	7,9	104,4

tumanlar:

Boyovut	9 122,4	10,4	102,1
Guliston	4 999,8	5,7	104,9
Mirzaobod	7 982,1	9,1	100,8
Oqoltin	3 333,2	3,8	105,8
Sardoba	3 596,3	4,1	100,6
Sayxunobod	5 701,5	6,5	104,7
Sirdaryo	18 595,6	21,2	103,5
Xovos	6 578,6	7,5	101,7

Avtomobil transportining yo'lovchi aylanmasi
(2023- yilning yanvar – dekabr holatiga)



Sirdaryo viloyatining hududlari kesimida yo'lovchi aylanmasi
(2023- yilning yanvar – dekabr holatiga)

	Hajmi, ming yo'lovchi-km	Jami hajingga nisbatan ulushi, % da	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Jami	2 704 536,3	100,0	103,1
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	565 248,2	20,9	103,6
Shirin	51 386,2	1,9	103,1
Yangiyer	210 953,8	7,8	101,8
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	292 089,9	10,8	104,0
Guliston	170 385,8	6,3	101,5
Mirzaobod	248 817,3	9,2	104,2
Oqoltin	121 704,1	4,5	100,8
Sardoba	124 408,7	4,6	105,4
Sayxunobod	181 203,9	6,7	101,6
Sirdaryo	516 566,4	19,1	103,6
Xovos	221 772,0	8,2	101,8

VII. ISTE'MOL BOZORI

1- BO'LIM. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2024- yil 1- yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalari soni **3 262** tani tashkil etib, 2023- yil 1- yanvariga nisbatan **159** taga kamaygan (kamayish sur'ati **4,9 %**).

Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **58** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **3 204** tani tashkil qildi. Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlari, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **5 252,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **107,0 %** ga etdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **345,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **102,9 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **4 907,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **107,3 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **451,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **118,9 %**) tashkil etdi.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari




Chakana savdo tovar aylanmasi
(2023- yil yanvar-dekabr, umumiy ovqatlanishni qo'shmagan holda)

	<i>Jami</i>		<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2022- yilning mos davriga nisbatan % da</i>	<i>ming. so'm</i>	<i>2022- yilning mos davriga nisbatan % da</i>
Sirdaryo viloyati	5 252,8	107,0	5 802,3	104,9
Guliston sh.	1 987,5	107,2	20 321,8	103,9
Shirin sh.	70,6	104,2	3 657,7	103,7
Yangiyer sh.	494,1	109,4	10 425,0	106,2
<i>tumanlar:</i>				
Boyovut	302,1	109,0	2 195,3	107,1
Guliston	265,6	110,8	3 374,2	108,2
Mirzaobod	358,6	107,0	4 499,3	104,7
Oqoltin	222,4	106,8	4 014,5	105,0
Sardoba	180,3	104,5	2 583,7	103,0
Sayxunobod	197,1	104,2	2 394,7	102,4
Sirdaryo	1 013,1	105,1	7 454,9	103,3
Xovos	161,5	107,0	1 592,4	105,3

2023- yil yanvar-dekabr oylarida, 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan viloyatning Yangiyer shahri (**109,4 %**) hamda Boyovut (**109,0 %**), Mirzaobod (**107,0 %**) va Guliston (**110,8 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


Hududlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi
 (2023 yilning yanvar-dekabr holatiga, % da)



Sirdaryo viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Guliston shahri 37,8 % ulush bilan 1 987,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Shirin shahri 1,3 % ulush bilan 70,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi (yanvar-dekabr holatiga)



So'nggi 6 yillikda chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2019- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2018- yilning mos davriga nisbatan 111,4 % ni yoki 2 900,8 mlrd. so'mni tashkil qildi.

2023- yil chakana savdo hajmining oylar kesimida o'sish sur'ati, % da




Ushbu diagrammada ko'rinish turibdiki, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasida o'sish sur'ati 107,0 % va quyi o'sish sur'ati yanvar oyida 97,9 % kuzatildi.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi

2024-yil 1-yanvar holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni **692** tani tashkil etib, 2023-yil 1-yanvar holatiga nisbatan **199** taga kamaydi. 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 3,2 % ni tashkil etib, 166,0 mlrd. so'mga yetdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 14,1 % ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining 86,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, % da



Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasida yuqori o'sish sur'ati Guliston (112,7 %), Mirzaobod (116,8 %), Sayxunobod (116,8 %) va Oqoltin (111,4 %) tumanlarida kuzatildi.

2- BO'LIM. ULGURJI SAVDO AYLANMASI

Ulgurji tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishslash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirilmagan holda jo'natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to'langanligidan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar hisobga olinadi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Xovos (**137,2**), Sayxunobod (**8,9 m.**) va Oqoltin (**2,0 m.**) tumanlarida kuzatildi.

2024- yil 1- yanvar holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **1 301** tani tashkil etib, 2023- yil 1- yanvar holatiga nisbatan **146** taga kamaygan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **19** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **1 282** tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi
(2023- yil yanvar-dekabr)

	<i>Jami (mlrd. so'm)</i>	<i>2022- yil- ning mos davriga nisbatan, % da</i>	<i>Yirik korxonalar (mlrd. so 'm)</i>	<i>2022- yil- ning mos davriga nisbatan, % da</i>	<i>Mikrofirma va kichik korxonalar (mlrd. so 'm)</i>	<i>2022- yil- ning mos davriga nisbatan, % da</i>
Sirdaryo viloyati	4 153,6	106,7	555,8	118,9	3 597,7	105,0
Guliston sh.	1 287,6	104,4	40,6	102,1	1 246,9	104,5
Shirin sh.	16,5	103,6	-	-	16,5	103,6
Yangiyer sh.	241,2	104,3	0,9	84,3	240,3	104,4
tumanlar:						
Boyovut	332,6	100,3	133,5	93,3	199,1	105,6
Guliston	65,2	90,3	13,6	54,5	51,7	109,2
Mirzaobod	172,8	91,1	12,8	31,8	160,0	107,1
Oqoltin	66,5	140,8	50,8	2,0 m.	15,7	69,9
Sardoba	134,7	96,1	13,7	51,8	121,0	106,4
Sayxunobod	511,0	155,9	239,7	8,9 m.	271,3	90,2
Sirdaryo	1 139,7	100,7	13,3	11,7	1 126,4	110,6
Xovos	185,8	107,8	36,9	137,2	148,8	102,4

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Chakana savdo – savdo sohasida yakuniy iste’mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko‘p bo‘lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyat, ya’ni tovarlarni foydalanish sohasidan shaxsiy yoki umumiy iste’mol sohasiga o’tgan vaqtdagi harakatining yakuniy bosqichini ifodalaydi.

Chakana tovar aylanmasi – tovarlarni sotish tarmoqlaridan qat’i nazar, aholiga iste’mol tovarlarini naqd hisob-kitob asosida yoki plastik kartochkalari, kredit kartochkalari, banklarning hisob cheklari orqali (bu ham naqd hisob-kitob asosida sotish kabi hisobga olinadi) sotilgan qiymati.

Umumiy ovqatlanish – yuridik shaxslar tomonidan pazandachilik mahsulotlarini tayyorlashga, sotishga va iste’molini tashkil qilishga ixtisoslashtirilgan faoliyatni amalga oshirish.

Umumovqatlanish aylanmasi – joyida aholiga iste’mol uchun, shuningdek, turli kontingentdagi aholini ovqatlanishini tashkil qilish uchun tashkilot va yakka tadbirdorlarga o‘zi ishlab chiqargan kulinariya mahsulotlarini (taom, kulinariya mahsulotlari va yarimfabrikatlar), shuningdek, kulinariya ishlovisiz sotib olingan tovarlarni (unli, qandolatli va non mahsulotlari) sotishdan tushgan tushumni ifodalaydi.

Tovar zaxiralari – chakana savdo korxonalarini balansida turgan va kelgusida sotish uchun mo‘ljallangan tovarlar qoldig‘i.

Tovar aylanmasining tovar tuzilmasi – umumiy savdoda nisbiy ko‘rsatkich – jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og‘irlik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlari o‘rtasidagi nisbat, ya’ni tovar aylanmasi tarkibi.

Ulgurji savdo – tijorat maqsadlarida yoki o‘zining ishlab chiqarish-xo‘jalik ehtiyojlariga foydalanish uchun, xarid qilingan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli bo‘yicha sotish.

Iste’mol tovarlari – yakuniy iste’molga (oilaviy yoki shaxsiy) qaratilgan, bevosita inson ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar.

Texnik-ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mahsulotlar – ishlab chiqarish iste’moli uchun mo‘ljallangan mahsulot: xomashyo, materiallar, yoqilg‘i, butlovchi instrumentlar, mashinalar, ehtirot qismlar, yarimfabrikatlar va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – tuzilgan shartnomalar bo‘yicha tijorat maqsadlarida (keljakda qayta ishlash yoki sotish) yoki o‘zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun naqd pulsiz hisob-kitob shaklida tovarlar sotishdan tushumni ifodalaydi.

Tovar zaxiralari – tovar muomalasi doirasida bo‘lgan tovarlar yoki ulgurji korxonalarini balansida turgan va kelgusida sotishga mo‘ljallangan tovarlar qoldig‘i.

Tovar aylanmasining tovar tuzilishi – tovar aylanmasi tarkibi, umumiy savdoda nisbiy ko‘rsatkich – jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og‘irlik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlari o‘rtasidagi nisbat.

VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

1- BO'LIM. SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

Sirdaryo viloyatida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasi 2023- yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasini (matnda TSA) 849,6 mln. AQSH dollariga yetishini va 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 35,9 mln. AQSH dollariga yoki 4,4 % ga oshishi ta'minladi.

Tashqi savdo aylanmasi va balansi
(yanvar-dekabr, mln. AQSH dollar)

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	813,6	849,6	104,4	x
Eksport	327,6	333,2	101,7	100,0
<i>tovarlar</i>	324,7	331,1	102,0	99,4
<i>xizmatlar</i>	2,9	2,1	72,4	0,6
Import	486,0	516,4	106,3	100,0
<i>tovarlar</i>	486,0	516,4	106,3	100,0
<i>xizmatlar</i>	-	-	-	-
Saldo	-158,3	-183,3	x	x

Hududlar kesimida muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning asosiy qismi Guliston shahri – 3,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

**2023-yil 1-dekabr holatiga ko‘ra hududlar kesimida
korxona va tashkilotlarning kreditor qarzdorligi, mlrd. so‘m**




2023-yil 1-dekabr holatiga ko‘ra ayrim vazirlik va idoralar bo‘yicha kreditor qarzdorligi (jamiga nisbatan % da)



Kreditor qarzdorlik “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati – 76,5 mlrd. so‘m (viloyat bo‘yicha jami kreditor qarzdorlikning 4,7 %), “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi – 55,7 mlrd. so‘m (3,4 %), “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati – 24,2 mlrd. so‘m (1,5 %), “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati – 20,4 mlrd. so‘m (1,3 %) va boshqalarda – 1 441,9 mlrd. so‘m (89,1 %)ni tashkil etdi.

2023-yil 1-dekabr holatiga ko‘ra, alohida xo‘jalik boshqaruvi organlarining debitor va kreditor qarzdarlogi, mlrd. so‘m



Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Daromad (foyda) solig‘i to‘lagunga qadar foyda (zarar) – korxona va tashkilotlarning barcha xo‘jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettiradigan yakuniy moliyaviy natija. Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari), asosiy faoliyatning boshqa daromadlari, moliyaviy faoliyatning daromadlari va favqulodda foyda yig‘indisidan davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar va favqulodda xarajatlar chegirib tashlanadigan foydaning umumiy foydasini (zararini) ifodalaydi.

Debitorlik qarzlar – xaridorlar va buyurtmachilar, sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarining qarzları, xodimlarga, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar, byudjet va davlat maqsadli jamg‘armalariga soliqlar, yig‘imlar va sug‘urta bo‘yicha bo‘nak to‘lovlar, muassislarning ustav fondidagi ulushlari bo‘yicha qarzi, xodimlarning boshqa operatsiyalar bo‘yicha qarzları va boshqa debitorlik qarzlarini o‘z ichiga oladi.

Kreditorlik qarzlar – yetkazib beruvchilar va pudratchilar, sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarining qarzi, soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, olingan avanslar, byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz, sug‘urta bo‘yicha qarz, davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz, ta’sischilarga qarzlar, mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarzlar va boshqa kreditorlik qarzlarini o‘z ichiga oladi.

Mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) – tayyor mahsulot, tovar, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shuningdek, sotilgan tovarlarning qaytishi, sotish va baholardan chegirmalar qo‘sishma qiymat solig‘i hamda aksiz solig‘ini qo‘sishgan holda.

Muddati o‘tgan qarzlar – qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda so‘ndirilmagan qarzning umumiy summasi.

XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI


So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2024-yil 1-yanvar holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 13 432 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 11 217 ta).

Shuningdek, ushbu davriga korxona ro‘yxatdan o‘tib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 109,6 % ni tashkil etdi.


Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiylar ma’lumotlar *fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda.*




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

yanvar-dekabr oylari holatiga ko‘ra


Yillar kesimida soni, birlikda



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2 270 tani tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: qishloq o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 26,2 foiz, savdo – 39,7 foiz, sanoat – 11,4 foiz, hududlar kesimida eng ko‘p Guliston shahrida 20,2 foiz, Sardoba – 12,9 foiz, Sirdaryo – 11,2 foiz va Oqoltin – 9,2 foiz tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Hududlar kesimida


	Soni birlikda	faoliyat ko‘rsatayotgan- larga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyat	2 270	16,9
Guliston sh.	458	14,1
Shirin sh.	40	11,0
Yangiyer sh.	159	17,0
Boyovut t.	181	14,8
Guliston t.	190	17,4

	Soni birlikda	faoliyat ko‘rsatayotgan- larga nisbatan, foizda
Mirzaobod t.	296	16,8
Oqoltin t.	209	24,6
Sardoba t.	293	28,9
Sayxunobod t.	159	14,9
Sirdaryo t.	254	15,4
Xovos t.	131	15,9


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra

Yillar kesimida soni, birlikda



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2024-yil 1-yanvar holatiga 13 432 taga yetib, 2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,0 foizni tashkil etdi.


Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 32,4 foiz, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 15,5 foiz, sanoat – 11,5 foiz, hududlar kesimida eng ko'p Guliston shahrida 24,2 foiz, Sirdaryo – 12,3 foiz, Boyovut – 9,1 foiz va Mirzaobod – 8,7 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida, birlikda


Guliston sh.	3 253	Sardoba t.	1 014
Sirdaryo t.	1 650	Yangiyer sh.	933
Mirzaobod t.	1 164	Oqoltin t.	851
Boyovut t.	1 221	Xovos t.	824
Guliston t.	1 093	Shirin sh.	365
Sayxunobod t.	1 064		

Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar
2023- yil yanvar-dekabr holatiga ko‘ra


Yillar kesimida soni, birlikda



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2023-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 2 205 tani tashkil etdi.


Hududlar kesimida

	Soni birlikda	faoliyat ko‘rsatayotgan- larga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyat	2 205	19,5
Guliston sh.	432	16,1
Shirin sh.	38	12,8
Yangiyer sh.	153	18,6
Boyovut t.	177	17,9
Guliston t.	184	19,8

	Soni birlikda	faoliyat ko‘rsatayotgan- larga nisbatan, foizda
Mirzaobod t.	189	18,9
Oqoltin t.	208	28,6
Sardoba t.	290	32,9
Sayxunobod t.	158	17,6
Sirdaryo t.	250	17,9
Xovos t.	126	19,4

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumotlar
2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024-yil 1-yanvar holatiga 11 281 taga yetib, 2020-yilning mos davriga nisbatan (208 ta) o'sish sur'ati 101,9 foizni tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 18,3 foiz, sanoat – 13,6 foiz, qurilish – 9,2 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 5,9 foiz, tashish va saqlash – 2,9 foiz, axborot va aloqa – 1,4 foiz, sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,2 foiz, boshqa turlari – 8,9 foiz.

Hududlar kesimida, birlikda


Guliston sh.	2 691	Sardoba t.	882
Sirdaryo t.	1 395	Yangiyer sh.	823
Mirzaobod t.	1 001	Oqoltin t.	728
Boyovut t.	987	Xovos t.	648
Guliston t.	930	Shirin sh.	297
Sayxunobod t.	899		

Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar ***2023-yil yanvar-dekabr holatiga ko‘ra***

Yillar kesimida soni, birlikda



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish



Savdo




Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 27,0 foiz, savdo – 40,9 foiz hamda sanoat 11,7 foizni tashkil etgan.


Hududlar kesimida

	Soni birlikda	faoliyat ko‘rsatayotgan- larga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyat	2 203	19,6
Guliston sh.	431	16,1
Shirin sh.	38	12,9
Yangiyer sh.	153	18,7
Boyovut t.	177	18,0
Guliston t.	184	19,8


	Soni birlikda	faoliyat ko‘rsatayotgan- larga nisbatan, foizda
Mirzaobod t.	189	19,0
Oqoltin t.	208	28,7
Sardoba t.	290	33,0
Sayxunobod t.	158	17,7
Sirdaryo t.	249	18,0
Xovos t.	126	19,6

**Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari
to‘g‘risida ma’lumotlar**
2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra

Yillar kesimida soni, birlikda



Yillar kesimida o‘sish surati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, birlikda



Hududlar kesimida eng ko‘p kichik biznes subyektlari Guliston shahrida (23,8 foiz), Sirdaryo (12,3 foiz), Mirzaobod (8,9 foiz) va Boyovut (8,8 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 53,8 foizdan ortig‘i faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida, birlikda

Guliston sh.	2 674	Sardoba t.	879
Sirdaryo t.	1 382	Yangiyer sh.	820
Mirzaobod t.	994	Oqoltin t.	726
Boyovut t.	982	Xovos t.	644
Guliston t.	927	Shirin sh.	295
Sayxunobod t.	894		

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat
ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar**
2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida


Sardoba t.	348
Mirzaobod t.	327
Sayxunobod t.	269
Oqoltin t.	266
Guliston t.	208
Boyovut t.	197
Sirdaryo t.	174
Xovos t.	142
Guliston sh.	94
Yangiyer sh.	40
Shirin sh.	20



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalgaloshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri mevasabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



***Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar
to‘g‘risida ma‘lumotlar***
2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda


Hududlar kesimida

Guliston sh.	324
Sirdaryo t.	236
Boyovut t.	162
Mirzaobod t.	139
Yangiyer sh.	142
Sayxunobod t.	144
Guliston t.	116
Xovos t.	102
Sardoba t.	69
Oqoltin t.	55
Shirin sh.	50



Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini soni jami korxona va tashkilotlarning 11,5 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 92,5 foizini ishlab chiqarish sanoati, 4,7 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash, 1,9 foizini suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (o‘sish sur’ati 57,1 foiz) va 0,9 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.




Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar

to‘g‘risida ma‘lumotlar

2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Guliston sh.	368
Mirzaobod t.	106
Sirdaryo t.	95
Yangiyer sh.	83
Guliston t.	75
Boyovut t.	67
Sayxunobod t.	66
Xovos t.	59
Oqoltin t.	51
Sardoba t.	40
Shirin sh.	39



O‘zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 54,5 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 24,8 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 20,7 foiz ulushni tashkil etdi.


260

Fuqarolik
obyektlarini qurish



217

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari




572

Bino va
inshootlar qurish

**Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va
tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar**
2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Guliston sh.	1 188
Sirdaryo t.	602
Guliston t.	379
Boyovut t.	369
Yangiyer sh.	333
Sardoba t.	315
Mirzaobod t.	290
Sayxunobod t.	286
Oqoltin t.	244
Xovos t.	224
Shirin sh.	122



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 4 343 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:


- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 63,0 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 28,9 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,1 foiz ulushni tashkil etdi.



***Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar
to'g'risida ma'lumotlar***
2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Guliston sh.	171
Sirdaryo t.	76
Boyovut t.	70
Yangiyer sh.	65
Guliston t.	56
Sayxunobod t.	52
Oqoltin t.	43
Sardoba t.	40
Mirzaobod t.	38
Xovos t.	27
Shirin sh.	23




2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 661 tani tashkil etdi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'nglochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'naliشining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 5,1 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'naliشining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 94,9 foiz ulushini tashkil etdi.




**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar
to'g'risida ma'lumotlar**

2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Guliston sh.	76
Yangiyer sh.	20
Boyovut t.	18
Sirdaryo t.	16
Guliston t.	11
Shirin sh.	9
Sardoba t.	7
Oqoltin t.	7
Sayxunobod t.	5
Mirzaobod t.	3
Xovos t.	2



2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra noshirlilik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 20,1 foizini tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radio eshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 31,0 foizini tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 48,9 foizini tashkil etdi.



**Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat
ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar**
2024- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Guliston sh.	90
Sirdaryo t.	31
Yangiyer sh.	20
Guliston t.	9
Mirzaobod t.	8
Sardoba t.	7
Sayxunobod t.	7
Boyovut t.	6
Xovos t.	5
Oqoltin t.	5
Shirin sh.	2



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 138 ta yoki 72,6 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki:

Ushbu sohadagi korxonalar sonining 90,0 foiz korxonalar sog‘liqni saqlash sohasidagi faoliyat yo‘nalishiga to‘g‘ri keladi;

Yashash uchun joy bilan ta’milangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni 3,2 foizni tashkil etdi;


Yashash uchun joy bilan ta’milnagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 6,8 foizini tashkil etdi.



Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar
2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

Guliston sh.	61
Sirdaryo t.	46
Yangiyer sh.	45
Mirzaobod t.	38
Xovos t.	40
Sayxunobod t.	27
Boyovut t.	27
Oqoltin t.	16
Guliston t.	15
Sardoba t.	9
Shirin sh.	5




2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami Sirdaryo viloyatidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning 2,4 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo‘nalishlari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatdiki:
 quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tashish va saqlash xizmati yo‘nalishining 73,3 foizni tashkil etdi;
 ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalishi 24,3 foizni;
 pochta va kuryerlik yo‘nalishi 2,4 foizni tashkil etdi;



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiylumot

2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Yangi tashkil etilgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot
2023- yil yanvar-dekabr holatiga ko‘ra

Yillar kesimida soni, birlikda



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Mas’uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyat hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyatini bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zлari qo‘sghan hissalari qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatları bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

Hududlar kesimida

	Soni birlikda	faoliyat ko‘rsatayotgan- larga nisbatan, foizda		Soni birlikda	faoliyat ko‘rsatayotgan- larga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyat	2 020	21,3	Mirzaobod t.	177	20,6
Guliston sh.	396	18,3	Oqoltin t.	201	30,6
Shirin sh.	35	14,2	Sardoba t.	282	35,4
Yangiyer sh.	132	18,4	Sayxunobod t.	129	17,2
Boyovut t.	148	19,0	Sirdaryo t.	240	19,4
Guliston t.	166	22,8	Xovos t.	114	19,8

Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot
2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra

Yillar kesimida soni, birlikda



Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, birlikda



2024- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan 11 281 ta tijorat korxona va tashkilotlarining 9 505 tasi mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirdorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan ma’suliysi cheklangan jamiyatlarining sohalar kesimida tahlili shuni ko‘rsatdiki, eng yuqori ko‘rsatkich savdo – 39,5 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 19,3 foiz hamda sanoat – 12,9 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida, birlikda

Guliston sh.	2 160	Guliston t.	727
Sirdaryo t.	1 239	Yangiyer sh.	716
Mirzaobod t.	860	Oqoltin t.	657
Sardoba t.	797	Xovos t.	575
Boyovut t.	779	Shirin sh.	246
Sayxunobod t.	749		

Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra

Yillar kesimida soni, birlikda

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, birlikda




2024-yil 1-yanvar holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘zaro taqqoslanganda, ikkinchi o‘rinni xususiy korxonalar egallagan bo‘lib, xususiy korxonalarning eng ko‘pi quyidagi hududlarda qayd etilgan; Guliston shahri - 415 ta, Boyovut - 149 ta, Guliston - 133 ta va Sirdaryo tumanida -115 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan; savdo sohasida – 520 ta, sanoat – 150 ta, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida – 143 ta va qurilish sohalarida – 127 ta.

Hududlar kesimida, birlikda

Guliston sh.	415	Yangiyer sh.	71
Boyovut t.	149	Sardoba t.	48
Guliston t.	133	Oqoltin t.	46
Sirdaryo t.	115	Xovos t.	46
Sayxunobod t.	102	Shirin sh.	37
Mirzaobod t.	81		

Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar
2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra

Yillar kesimida soni, birlikda



Yillar kesimida o’sish sur’ati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, birlikda



Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 279 ta, 2020-yilning mos davriga nisbatan 94 taga ko‘paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – 29 tadan 59 taga (o’sish 30 taga), sanoatda – 79 tadan 99 taga (o’sish 20 taga), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi – 30 tadan 80 taga (o’sish 50 taga) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

Hududlar kesimida birlikda

Guliston sh.	74	Sayxunobod t.	14
Guliston t.	45	Oqoltin t.	12
Mirzaobod t.	27	Shirin sh.	11
Boyovut t.	34	Xovos t.	6
Yangiyer sh.	27	Sardoba t.	4
Sirdaryo t.	25		

**Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot
2024- yil yanvar-dekabr holatiga ko‘ra**

Yillar kesimida soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘lmalar), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soning o‘sish sur’ati 2022-yilning mos davri bilan solishtirganda 1,9 martaga ko‘paygan.

Hududlar kesimida

	Soni birlikda	faoliyat ko‘rsatayotgan- larga nisbatan, foizda		Soni birlikda	faoliyat ko‘rsatayotgan- larga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyat	54	26,5	Mirzaobod t.	5	18,5
Guliston sh.	11	28,2	Oqoltin t.	3	42,9
Shirin sh.	1	16,7	Sardoba t.	-	-
Yangiyer sh.	9	45,0	Sayxunobod t.	6	50,0
Boyovut t.	1	11,0	Sirdaryo t.	15	25,0
Guliston t.	2	16,7	Xovos t.	1	14,3

Faoliyat ko‘rsatayotgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot
2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra

Yillar kesimida soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, birlikda



Keyingi besh yilda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 1,3 barobarga oshdi.

Yetakchi o‘rinni 52 ta korxonada to‘liq yoki qisman ulushi mavjud bo‘lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiylar sonining 25,5 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotiga o‘z kapitalini kiritayotgan Rossiya (ulushi 17,6 foiz), Turkiya (ulushi 14,7 foiz), Qozog‘iston (ulushi 11,3 foiz) va Afg‘oniston (ulushi 5,4 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida, birlikda

Sirdaryo t.	60	Boyovut t.	9
Guliston sh.	39	Xovos t.	7
Mirzaobod t.	27	Oqoltin t.	7
Yangiyer sh.	20	Shirin sh.	6
Guliston t.	12	Sardoba t.	5
Sayxunobod t.	12		

*Davlatlarning ulushlari mayjud bo‘lgan chet el investitsiyasi
ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma’lumot
2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*



O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘sni davlatlar bilan yaxshi qo‘snnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘ara asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 96 tasi qo‘shma korxonalar, 108 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

*Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy va
qo‘shma korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot
2024- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*

xorijiy korxonalar

qo‘shma korxonalar

26	Sirdaryo t.	34
21	Guliston sh.	18
13	Mirzaobod t.	14
15	Yangiyer sh.	5
9	Guliston t.	3
6	Boyovut t.	3
8	Sayxunobod t.	4
3	Oqoltin t.	4
1	Sardoba t.	4
4	Xovos t.	3
2	Shirin sh.	4

Mamlakatimizda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalg qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta‘minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko‘payib bormoqda.

2024-yil 1-yanvar holatiga chet el investitsiyalari ishtirokida ro‘yxatga olingan korxonalar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 46 taga ko‘payib, 275 tani tashkil etdi.

*Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy va qo‘shma korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot
2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda*



So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotni jadal o‘zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to‘siqlarni bartaraf etishda qat’iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda.

Demak, chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liq.

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo’lgan axborot-ma’lumotnomasi tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik	shaxslarning	faollik	darajasi
ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami	ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.		

Kichik korxona va mikrofirmalar – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagisi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

XII. DEMOGRAFIK HOLAT

SIRDARYO VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

2023- yil yanvar-dekabr, dastlabki ma'lumotlar

Sirdaryo viloyatida 2024-yil 1- yanvar holatiga doimiy aholi soni **914,0** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 17,4 ming kishiga yoki **1,9 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **393,5** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **43,1 %**), qishloq aholisi soni **520,5** ming kishi (**56,9 %**) ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

914,0 *ming
kishi*

Tabiiy o'sish

+18,6 *ming
kishi*

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar



43,1 %

Qishloq



56,9 %


Sirdaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2024- yil yanvar holatiga




Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2024- yil 1-yanvar holatiga



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining 31,9 % mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 58,3 % mehnatga layoqatli yoshdagilar va 9,8 % mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi
2023- yil yanvar-dekabr




2023-yil yanvar-dekabr oylarida Sirdaryo viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **37,6%** farzandsiz, **28,9 %** bitta farzand bilan, **33,5 %** ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Doimiy aholi sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi
2024-yil 1-yanvar holatiga, ming kishi

	2023- yil	2024- yil	O‘sish sur’ati, % da
Sirdaryo viloyati	896,6	914,0	101,9
shahar:			
Guliston sh	96,2	99,3	103,2
Shirin sh	19,2	19,4	101,1
Yangiyer sh	46,8	48,0	102,6
tumanlar:			
Oqoltin t	55,0	55,8	101,4
Boyovut t	136,4	138,9	101,8
Sayxunobod t	81,7	82,8	101,3
Guliston t	77,8	79,6	102,3
Sardoba t	69,3	70,3	101,4
Mirzaobod t	79,0	80,4	101,7
Sirdaryo t	134,7	137,2	101,8
Xovos t	100,5	102,3	101,8


Sirdaryo viloyati bo'yicha aholi zichligi
 2024-yil 1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Sirdaryo viloyatida 2024- yil 1-yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrga o'rtacha **213,7** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **1,2** kishiga ortgan (2023- yil 1-yanvar holatiga 1 kv.km.ga **212,5** kishi to'g'ri kelgan).

Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Guliston shahrida **2 482,5** kishi, Yangiyer shahrida **1 600,0** kishi, Shirin shahrida **1 940,0** kishi, Boyovut tumanida **267,1** kishi, Sirdaryo tumanida **249,5** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Oqoltin tumanida **101,5** kishi, Mirzaobod tumanida **126,5** kishini tashkil etgan.

QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR




Shahar va tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti 2023- yil yanvar-dekabr holatiga




2023- yil yanvar-dekabr oylarida **23,2** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **25,7** promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2022- yilga nisbatan **-0,6** promillega pasayganligi kuzatildi (2022- yil yanvar-dekabr oylarida **26,3** promilleni tashkil etgan).

VAFOT ETGANLAR




Sirdaryo viloyatida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti 2023- yil yanvar-dekabr holatiga



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **4,6** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1 000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **5,1** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan ko‘rsatkich **0,3** promillega ko‘paygan (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **4,8** promille bo‘lgan).


O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-dekabr, kishi




2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **76,1 %** – Qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **2,7 %** Ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, **2,4 %** – Nafas olish a’zolari kasalliklaridan, **6,8 %** – Baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,1 %** – O’simtalardan vafot etganlar, **0,7 %** – Yuqumli va parazit kasalliklardan va **7,2 %** – Boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR




Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti 2023- yil yanvar-dekabr, birlik




2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 7,2 mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga nikoh koeffitsiyenti 8,0 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan 0,7 promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 8,7 promille bo'lgan).

NIKHDAN AJRALISHLAR




Nikhdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-dekabr, birlik




2023- yil yanvar-dekabr oylarida **1,6** mingta nikhdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1 000 aholiga nikhdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,7** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,3** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yil yanvar-dekabr oylarida **2,0** promille bo‘lgan).

JAMI KO‘CHIB KELGANLAR




Ko‘chib kelganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-dekabr holatiga




2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **6,6** mingta ko‘chib kelganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1 000 aholiga ko‘chib kelish koeffitsiyenti **7,3** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,5** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **7,8** promille bo‘lgan).

JAMI KO‘CHIB KETGANLAR



Ko‘chib ketganlar soni va koeffitsiyenti
2023- yil yanvar-dekabr holatiga



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 7,7 mingta ko‘chib ketganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1 000 aholiga ko‘chib ketish koeffitsiyenti 8,5 promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan 0,4 promille kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 8,9 promille bo‘lgan).

Aholi migratsiyasi
(yanvar-dekabr, kishi)

	Kelish		Ketish		Migratsiya saldosи	
	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.
Sirdaryo viloyati	6 885	6 589	7 907	7 739	-1022	-1150
shaharlar						
Guliston	1 566	1 586	1 194	1 335	372	251
Shirin	251	253	284	278	-33	-25
Yangiyer	783	841	519	577	264	264
tumanlar:						
Oqoltin	327	311	561	463	-234	-152
Boyovut	593	576	1 136	1 036	-543	-460
Sayxunobod	368	62	554	505	-186	-443
Guliston	827	815	659	586	168	229
Sardoba	308	299	645	555	-337	-256
Mirzaobod	683	670	635	671	48	-1
Sirdaryo	542	663	848	799	-306	-136
Xovos	637	513	872	934	-235	-421

Demografik ko‘rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

XII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

2023-yil yanvar-dekabr oylarida Sirdaryo viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 629,2 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 12,7 % ga o'sishi ta'minlandi.



Yuridik shaxslarda xodimlar soni va ish haqi fondi
(2023 yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirdorlik subyektlaridan tashqari)

	<i>Xodimlar soni, kishi</i>	<i>Ish haqi fondi, mlrd. so'm</i>	<i>O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm</i>
Viloyat bo'yicha-jami	79 262	3 451,9	3 629,2
<i>shu jumladan:</i>			
sanoat	14 291	633,3	3 692,8
qurilish	1759	63,6	3 011,4
savdo	457	19,4	3 531,1
tashish va saqlash	503	27,8	4 634,1
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	11	0,3	1 973,5
axborot va aloqa	520	46,3	7 415,2
bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	1 727	183,5	8 854,4
ta'lim	31 069	1 136,2	3 047,5
sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	16 328	574,6	2 932,5
san'at, ko'ngil ochish va dam olish	642	17,1	2 225,5
boshqa faoliyat turlari	11 955	692,6	4 827,7

Ish haqi. 2023 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko‘rsatmoqda.

Ta’lim sohasida 31,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 39,2 %) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 1136,2 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondi ulushi 33,5 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3047,5 ming so‘mni tashkil etdi.



Sanoat iqtisodiy faoliyat turida 14,3 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 18,0 % ni) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 633,3 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 18,7 % ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3692,8 ming so‘mni tashkil etdi.



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida 16,3 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 20,6 % ni) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 574,6 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 16,9 % ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2932,5 ming so‘mni tashkil etdi.



Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turida 0,5 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,6 % ni) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 27,8 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 0,8 % ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4634,1 ming so‘mni tashkil etdi.



Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turida 1,7 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,2 % ni) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 183,5 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 5,4 % ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8854,4 ming so‘mni tashkil etdi.


Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirdorlik
subyektlaridan tashqari, ming so'm)

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, %
Viloyat bo'yicha:	3220,4	3629,2	112,7
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	3821,1	4238,8	110,9
Shirin	5286,5	6220,0	117,7
Yangiyer	3641,6	3932,1	108,0
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	2674,9	3059,9	114,4
Boyovut	3062,9	3609,0	117,8
Sayxunobod	2965,2	3280,7	110,6
Guliston	2322,1	2640,1	113,7
Sardoba	2639,9	2875,7	108,9
Mirzaobod	2353,6	2781,0	118,2
Sirdaryo	2632,2	2924,3	111,1
Xovos	2882,3	3184,3	110,5

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2023 yil yanvar-dekabr oylarida; viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya’ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Shirin shahar 6220,0 ming so‘mni (2022- yilning mos davriga nisbatan o‘rtacha oylik ish haqqi 117,7 %), Guliston shahar 4238,8 ming so‘mni (110,9 %) tashkil etgan bo‘lsa, Yangiyer shahar 3932,1 ming so‘mni (108,0 %), Boyovut tumani 3609,0 ming so‘mni (117,8 %) tashkil etmoqda.

Ma’lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to‘liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori (2023- yil 1- dekabr oyida 1050,0 ming so‘mni tashkil etgan) bo‘yicha belgilangan miqdordan oz bo‘lishi mumkin emasligi ko‘rsatib o‘tilgan.



**SIRDARYO VILOYATINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI
2023- YIL
YANVAR-DEKABR**

Nashrga mas’ul:

Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig‘ma axborot-tahliliy ishlar bo‘limi
tel. (0-367)236-86-14

Buyurtma raqami №___. _____.24 y. Tiraj ____ nusxa

*Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi
Guliston sh., Birlashgan ko‘chasi, 62-uy
www.sirstat.uz*